

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

A.B. Kasimova, N.M.Mirfayazova

**TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINI BADIY
BEZASH ASOSLARI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
5150900-Dizayn (kostyum) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar uchun o'quv
qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent - 2019

UO’K

KBK:

Taqrizchilar:

U.S.Raxmatullayeva – Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti “Kostyum dizayni” kafedrası dotsenti, f.f.n.

A.Z.Rashidov - Komoliddin Behzod nomidagi Milliy rasssomlik dizayn institute “Libos dizayni” kafedrası mudiri

Muallif:

Kasimova Aziza Baxadirovna

Mirfayazova Nilufar Miraxmedovna

ANNOTASIYA

Mazkur o'quv qo'llanma libos dizayni ta'lim yo'nalishi bakalavriat talabalari uchun "To'qimachilik mahsulotlarini badiiy bezash asoslari" fanidan asos vazifasini o'taydi. Unda lto'qimachilik naqshlarining klassifikatsiyasi, naqsh kompozitsiyani qonun va qoidalari, kombinatorikaning asosiy usullari, kinetizm, matoning kinetik naqshi va boshqa ko'pgina kerakli ma'lumotlar keltirilgan.

Oquv qo'llanmada naqsh turlari, ularni yaratishni qonun qoidalari, ijodiy usullari va matoga badiiy bezak berishning texnikalari haqidagi ma'lumotlarga tizimli yondashuv, O'zbekistondagi milliy dizayn masalalariga milliy g'oya nuqtai nazaridan namoyon bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda to'qimachilik mahsulotlarini badiiy bezashda kerak bo'ladigan muhim qonun-qoidalar va tushunchalar rangli rasm va ilustratsiyalar yordamida yoritishga harakat qilingan.

АННОТАЦИЯ

Данное учебное пособие предназначено для студентов бакалавриата обучающихся по специальности "Дизайн одежды" в высших учебных заведениях и является основой в изучении дисциплины "Основы художественного оформления текстильных изделий". В учебном пособии приведены классификация текстильного орнамента, законы и правила орнаментальной композиции, сведения о основных приемах комбинаторики, кинетизме, кинетическом рисунке тканей и др.

В учебном пособии предусмотрен систематический анализ видов орнамента, методы создания узоров и техник по художественному оформлению тканей в стилевых направлений дизайна. Наблюдается национальный подход к ценностям национальной культуры и идеологии. Одним словом освещены правила и понятия художественного оформления тканей с помощью цветных фото и иллюстраций.

ANNOTATION

This tutorial is intended for undergraduate students enrolled in the specialty "Fashion Design" in higher educational institutions and is the basis for studying the discipline "Basics of Textile Art Design". The tutorial contains a classification of textile ornament, the laws and rules of ornamental composition, information about the basic techniques of combinatorics, kinetism, kinetic pattern of fabrics, etc.

The textbook provides a systematic analysis of the types of ornament, methods for creating patterns and techniques for decorating fabrics in the style directions of design. There is a national approach to the values of national culture and ideology. In a word, the rules and concepts of decorating fabrics with the help of color photos and illustrations are covered.

MUNDARIJA

	KIRISH.....	7
I-BOB.	To'qimachilik buyumlari naqshlari va ranglari.....	10
1.1	To'qimachilik naqshi va terminlari.....	10
1.2	Naqsh kompozitsiyacini qonun va qoidalari.....	17
1.3	To'qimachilik naqshlarining umumiy klassifikatsiyasi.....	22
1.4	Naqsh kompozitsiyasini yaratishning ijodiy usullari.....	32
1.5	Tusning tasviriy imkoniyati nazariyasi.....	34
1.6	To'qimachilik naqshlari va tabiiy manbalar.....	37
1.7	Monokompozitsiyani qurishda umumiy prinsiplar.....	40
1.8	To'qimachilik buyumlarini modellashtirishda naqshlar joylashishi.....	48
1.9	To'qimachilik mahsulotlari naqshini kostyum loyihalashda o'rni.....	54
II-BOB.	Modul tizimida buyumni loyihalash.....	61
2.1	Kombinatorika – dizaynda shakllantirish usullari.....	61
2.2	Kombinatorikaning asosiy usullari (o'zgartirish, gruppallashtirish ritmlarni tashkillashtirish).....	65
2.3	Kinetizm-kombinatorikaning loyixalash usullari. matoning kinetik naqshi.....	68
2.4	Grafik illuziyalarni dekorda yoki matolar naqshida qo'llash.....	73
2.5	Kiyimni modellashtirish jarayonida modulli loyihalash usulini qo'llash.....	78
2.6	Quroq texnikasining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish.....	82
2.7	“Quroq” texnikasidan foydalanib kostyumlarni loyixalash.....	88
2.8	Kostyum siluetining mato naqshi bilan bog'liqligi.....	94
2.9	Kundalik va tantanali kiyim, ornament.....	100
	Glossariy.....	104
	Adabiyotlar ro'yxati.....	116

СОДЕРЖАНИЕ

	ВВЕДЕНИЕ.....	7
I-ГЛАВА	Орнамент и колорит текстильных изделий.....	10
1.1	Текстильный орнамент и вопросы терминологии.....	10
1.2	Законы, правила орнаментальной композиции.....	17
1.3	Общая классификация текстильных орнаментов.....	22
1.4	Творческий метод создания орнаментальной композиции.....	32
1.5	Теория изобразительных возможностей тона.....	34
1.6	Текстильный орнамент и мотивы природы.....	37
1.7	Общие принципы построения монокомпозиции.....	40
1.8	Расположение орнамента в моделировании текстильных изделий.....	48
1.9	Роль текстильного рисунка в проектировании костюма.....	54
II-ГЛАВА	Проектирование изделий в модульной системе.....	61
2.1	Комбинаторика – метод формообразования в дизайне.....	61
2.2	Основные приемы комбинаторики (перестановка, вставка, группировка, переворот, организация ритмов).....	65
2.3	Кинетизм – комбинаторный метод проектирования. Кинетический рисунок тканей.....	68
2.4	Использование графических иллюзий в декоре или в рисунках тканей, украшениях.....	73
2.5	Применение модульного проектирования в процессе моделирования одежды.....	78
2.6	Исследование особенностей техники печворк.....	82
2.7	Моделирование одежды из модулей ткани.....	88
2.8	Связь рисунка ткани с силуэтом костюма.....	94
2.9	Повседневная и нарядная одежда и орнамент.....	100
	ГЛОССАРИЙ.....	104
	СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.....	116

CONTENT

	INTRODUCTION.....	7
The chapter I	Ornament and color of textiles.....	10
1.1	Textile ornament and terminology issues.....	10
1.2	Laws, rules of ornamental composition.....	17
1.3	General classification of textile ornaments.....	22
1.4	Creative method of creating an ornamental composition....	32
1.5	Theory of visual possibilities of tone.....	34
1.6	Textile ornament and motifs of nature.....	37
1.7	General principles of monocomposition.....	40
1.8	The location of the ornament in the simulation of textiles..	48
1.9	The role of textile design in costume design.....	54
The chapter II	Product design in a modular system.....	61
2.1	Combinatorics - the method of shaping in design.....	61
2.2	The basic techniques of combinatorics (permutation, insertion, grouping, coup, organization of rhythms).....	65
2.3	Kinetics - combinatorial design method. Kinetic tissue pattern.....	68
2.4	The use of graphic illusions in the decoration or in the drawings of fabrics, decorations.....	73
2.5	The use of modular design in the process of modeling clothes.....	78
2.6	The study of the characteristics of the technique of patchwork.....	82
2.7	Modeling clothes from fabric modules.....	88
2.8	Connection fabric pattern with the silhouette of the su.....	94
2.9	Casual and elegant clothes and ornament.....	100
	GLOSSARY.....	104
	LITERATURE.....	116

KIRISH.

Bizga ma'lumki, jamiyatimizda yuz berayotgan yangilanishlar, sa'nat sohasida jadal borayotgan rivojlanishlar, milliy madaniyatimiz rivojiga keng yo'l va imkoniyat ochib bermoqda. Respublikamizda badiiy ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassis - kostyum dizayni bo'yicha kadrlar tayyorlash borasida ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli, ijodkor dizayner ko'nikmalarini o'zida namoyon qiluvchi va sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishini topishda, nafaqat libos dizayni, balki umuman dizayn yo'nalishining o'ziga xos tomonlarini o'rgatuvchi fan sifatida zaruriyat katta.

Dizaynerlarning mahoratini faqat go'zal buyumlarni yaratishga yo'naltiribgina qolmay, ijtimoiy muhit, qulay, ko'pfunksiyali, ma'lum iste'mol guruhiga mo'ljallangan va talablarini qondiradigan buyumlarni yaratishda qatnashishi zarur. Go'zal, ijtimoiy yo'naltirilgan buyumlar yangi turmush tarzini o'rnatishga imkon beradi, insonning ruhiy talablarini qondiradi, moddiy vositalarni tejamlash rezerviga aylanib, mahsulotni mukammallik darajasini oshiradi. Dizayner jamiyat oldida ma'suliyati faqat mahsulotni sinfigina emas, balki insonni madaniy saviyasini ko'tarishdir.

Yengil sanoat sohasi oldida turgan vazifalar quyidagilar: aholining talablarini to'liq qondirish, bozorni kerakli mahsulotlari bilan ta'minlash, buyumlar assortimentini kengaytirish va sifatini ko'tarish. Omma ehtiyojni qondiradigan zamonaviy buyumlarni ishlab chiqarishda ko'p muammolar mavjud. To'qimachilik mahsulotlarini badiiy bezash asoslarini o'rganish dizaynerlarni badiiy ijod qonunlariga javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqishda as qotadi. Badiiy bezak kompozitsiyasini yaratish qonunlarini, ranglar uygunligi, naqsh turlari, tuslarning imkoniyatlarini o'rgangan xolda beqiyos san'at asarini yaratish mumkin.

To'qimachilik mahsulotlarini badiiy bezashda dizayner-rassomlar ijodiy manbani milliy san'at an'analari va tarixiy merosidan olishgan. Zero turli davrlarda tabiat xodisalari, xalq ijodi turlicha talqin etib kelingan, bu esa o'z navbatida ijod uchun tuganmas manba bo'lib xizmat qiladi.

Xalq amaliy san'ati dizayn yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning badiiy didni o'stirish bilan bir qatorda ularda borliqni idrok etish madaniyatini va ularga nisbatan estetik munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, yog'och o'ymakorligida qo'llanilgan naqshlarni batik texnikasi, kashtachilik va boshqa to'qimachilik maxsulotlariga badiiy bezak berish usullari yordamida betakror mato nusxasini yaratish mumkin. Amaliy san'at turlari bu hox zargarlik bo'lsin, hox gilamdozlikda qo'llaniladigan naqshlarni libos shakli va bichimida ham qo'llashlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday ekan shubhasiz amaliy san'at dezaynerlar uchun bitmas tunganmas ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ornament (lot. *ornemantum* — bezak) — turli predmetlarni (mebel, uy jihozlari, to'qimachilik mahsulotlari, kitob va boshqalarni) bezash uchun mo'ljallangan, tarkibiy elementlarning takrorlanish va almashinishiga asoslangan naqshdir. Ornament – bu to'g'ri takrorlanuvchi teng shakllarni birikmasi bo'lib, qadim o'tmishda ramziy va fusunkor ma'noga ega bo'lgan, insonning eng qadimgi tasviriy faoliyatlaridan biridir, ammo dastlabki dekorativ-ornamental elementlar ma'noviy ahamiyatga ega bo'lmasdan, balki shunchaki ritm, shakl, tartib va simmetriyani aks ettirgan. Dastlabki ornament deyarli faqat qat'iy shakllar - aylana, yarim aylana, oval, spiral, kvadrat, romb, uchburchak va ularning boshqa kombinatsiyalardan tashkil topgan geometrik shaklda bo'lgan. Qadimgi odamlar olamni tashkiliy tuzilmasi haqida ma'lum ilohiy tasavvurga ega bo'lishni boshlaganlaridan so'ng, shakllarning ramziy ma'nolari kelib chiqq boshlagan. Masalan, aylana – quyosh, kvadrat — er, uchburchak – tog'lar, svastika — quyosh harakati, spiral – rivojlanish, harakat va b. Asta sekin ushbu ramz-belgilar estetik qiymatga ega bo'lib, naqshning ornamental ifodasiga ega bo'la boshladi. Ornamentning bezash vazifasi aniqlandi.

Naqsh milliy amaliy xunarmandchilikda katta o'rin tutadi. Naqshning asosiy 4 ta funksiyasi mavjud bo'lib: birinchidan, konstruktiv – u jismni tektonikasini saqlab, uni fazoviy idrok etishga yordam beradi; ikkinchidan, ekspluatatsion — buyumdan foydalanishni osonlashtiradi; uchinchidan, reprezentatsion — buyumni

qiymatini oshiradi; to'rtinchidan, psixologik — inson ruhiyatiga ta'sir etib uni hayajonlantiradi yoki aksincha tinchlantiradi.

Bezak san'atining uzoq tarixi mobaynida naqshlarning ko'pgina turlari yuzaga keldi: geometrik, o'simlik, kompleks va h.k., oddiy bo'linmalardan to murakkab tutashmalargacha. Naqshni o'rganishning muhim taraflaridan biri kompozitsion xususiyatlarni tuzilishini aniqlash bo'libgina qolmay, balki naqshning tashkil etuvchilarni izohlash ham alohida o'rin tutadi. Insoniyat yaralishi bilan yuzaga kelgan naqsh hayotni emotsional va estetik jihatdan boyitib, maishiy jihozlar, matolar, zargarlik buyumlari va kitoblarni timsoliy strukturasi tashkil etadi.

Naqsh ramzini o'rganish - tasviriy savodxonlikning alohida bo'limi bo'lib, buyum va liboslarni badiiy qiyofasini bezash va shakllantirish bilan bog'liq vazifalarini bajaruvchilar uchun keraklidir. Dizayner libosni yaratishda badiiy bezak berish uchun loyihadagi naqshlarning ramziy ma'nosini o'rganishi kerak. Xar bir belgining ramziy ma'nosini anglamasdan turib liboslarda qo'llash mumkin emas. Masalan, Toshkent do'ppisidagi naqshni libosda qo'llash tavsiya etilmaydi. Odam tasvirini ham liboslarga ko'chirish mumkin emas, shuningdek yuqorida ta'kidlangan arab kalligrafiyasini geometrik naqshini ham liboslarni bezashda qo'llanilmagani maqqul.

Liboslarni badiiy bezashda naqshlarni o'rganishning yana bir nozik tomoni ularning libosdagi kompozision joylashuvidir. Loyiha eskizlarida naqshlarni joylashuvini mayda detallarigacha tahlil qilinishi zarur. Geometrik naqshlar inson qomatini anatomik qaytarishi uni bachkana bo'lib ko'rinishiga olib keladi. SHunday ekan har bir dizayner naqsh va belgilarning ramziy ma'nosini o'rgangan xolda kiyimga ko'chirishi yoki liboslarni badiiy bezashda foydalanishi mumkin.

1-BOB. TO'QIMACHILIK BUYUMLARI NAQSHLARI VA RANGLARI.

1.1. TO'QIMACHILIK NAQSHI VA TERMINLARI.

To'qimachilik naqshlari naqsh san'ati soxasida etakchi o'rinni egallab, mato va boshqa to'qimachilik buyumlarini bezatishda qo'llaniladi. Matolarga badiiy bezak berish prinsiplari haqida so'z borganda, uning kompozision echimi va naqshni estetik taraflariga alohida etibor qaratiladi.

Kompozisiya lot. «composito» - mato naqshlarini yaratish va tuzish demakdir. Kompozisiya - badiiy asar shaklining barcha elementlarini, mazkur asarning obrazli g'oyaviy - badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirishdir. Har qanday badiiy asarda uni tashkil etgan barcha elementlar o'rinli bo'lishi kerak. Ortiqcha, yoki muallif fikrini etarlicha yaxshi ifoda etmaydigan nimaiki bo'lsa, olib tashlanishi zarur. Kompozisiya maxsus badiiy tildan iborat bo'lib, uning yordamida dizayner borliqni aks ettiruvchi g'oya va tuyg'ularni tasvirlab beradi. Har qanday badiiy asar uyg'un bo'lishi kerak.

Uyg'unlik (*garmoniya* yunon. «*harmonia*») - san'at asarining ayrim bo'limlarini bir-biriga mosligi, muntazamligi, bog'lanishi, turli-tumanlikda spesifik birligidir.



1-rasm. Naqsh kompozitsiyasi.

Asarning badiiy boyligi uning majmui bilan tavsiflanadi. Kompozisiya qonuniyatlarini bilish - ijodni cheklamay, balki, aksincha, uni aniq bir maqsadni ko'zda tutadigan qiladi, muallifni adashishdan, tasodifiy xatolardan ogohlantiradi va ijodni ilmiy va erkin qiladi.

Shunga ko'ra **naqsh kompozitsiyasi** to'qimachilik rasmlari nuqtai nazaridan qaraganda – bu to'qimachilik buyumini vazifasi, xarakteri, mazmuniga ko'ra, hamda, siymoli yakunlangan to'qimachilik naqshidir. Kompozitsiya joriy davrda hukm surgan o'zgaruvchan uslublardan kelib chiqqan holda yaraladi (1-rasm). Uni yaratishda kompozitsiyaning qonun-qoidalariga asoslangan xolda yangi g'oya, o'zgarishlar va urflarni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga kompozitsiya yaratish ijodiy jarayonida dizayner shaxsiy dunyoqarashi, g'oya, fikrlari bilan individual yondashsagina jarayon muvaffaqiyatli yakun topadi. Demak kompozitsiya tasviriy asarning badiiy g'oyasi bo'lib, uning tili sifatida namoyon bo'ladi.


Naqsh tili – bu predmetni inson hayolida gavalantiruvchi siymo bo'lib, u murakkab tuyg'ular, his- xayajonlarni uyg'otadi. Naqsh san'atida siymolar shartli ravishda shakllanuvchi ramziy til bo'lsada, ular emosiyaning tom ma'nosi va mazmunini ifodalaydi. Bular nuqta, dog', chiziq, rang, faktura. Ularning barchasi kompozitsiya elementlariga ham ta'luqlidir. Albatta ular badiiy asarda qo'yilgan maqsad va vazifasiga ko'ra murakkabroq va turli shakllar, hamda naqsh motivlariga aylanadilar.

Nihoyat kompozitsiya deb, rassom-dizaynerlarning g'oyalarini amalga oshirgan ijod mahsulining yakuniy natijasiga ham aytish mumkin. Bunga badiiy bezak berilgan mato yoki pannoni misol qilish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Matoga bo'yoqlar yordamida berilgan bezak. Panno.

Rapport deb – takrorlanuvchi rasmning minimal maydoniga aytiladi. Unga keyingi naqshgacha bo'lgan masofa ham ta'luqli. Rasmning konstruktiv asosiga, gorizontal va vertikal qatorlar bo'yicha takrorlanishiga **rapport setkasi** deyiladi (3-rasm). Rapport o'lchamlari – balandligi va eni, matoning funksional vazifasiga ko'ra belgilanadi.




3-rasm. Rapport setkasi.

Agar rapport bir yonalishda takrorlansa lentali rapport kelib chiqadi. Bu esa naqshni vertikal yoki gorizontal qatorlarda joylashuvini hosil qiladi. Bunga xoshiyali va kuponli matolar misol bo'ladi (4-rasm).




4-rasm. Xoshiyali va kuponli naqsh kompozitsiyalari.

Bundan tashqari siljigan rapportli naqshlar ham mavjud. Rapport to'rtburchak, kvadrat yoki yuzani bo'shliqsiz xolda to'ldiruvchi murakkab shaklda ham bo'lishi mumkin (5-rasm). **Motiv** – bu to'qimachilik naqshining bir bo'laki, uning asosiy elementidir. U bir yoki ko'p elementlardan tashkil topishi mumkin. Murakkab kompozitsiyalarda rapport bir necha naqsh motivlaridan tashkil topadi.



5-rasm. Kompozisiyada rapport.

Ritm – bu naqsh elementlarini bir tartibda takrorlanishidir. Ritm naqsh kompozitsiyasini motivlar va shu motiv elementlari, ularni yuza, burilish, qiyaliklari, naqsh dog’lari, ular orasidagi masofalarni ritmik takrorlanishi, naqshni ahamiyatli xarakteristikasi xisoblanadi. Kompozision yuzada motiv yoki motiv elementlarini o’zaro joylashishi **ritmik uyushma** deyiladi. Kichik shakldan kattaga, yaqindan uzoqqa, oddiydan murakkabga, ochdan to’qqa asta-sekin ravon yoki keskin, sakrovchi xarakatli o’tishi **ritmik xarakat** deyiladi (6-rasm).



6-rasm. Naqshlarning ritmik harakati.

Stilizasiya – bu tabiiy manbani tashqi tuzilishini, hislatlarini badiiy dekorativ qayta ishlashdir (7-rasm).

Naqsh mavzusi – bu motivlarni o'lchami, shakli va ranglarini bir qarashda yagona naqshga umumlashuvdir.

Kolorit – deb naqsh kompozitsiyasida umumiy ustunlik qiluvchi rangga aytiladi.



7-rasm. Barg stilizatsiyasi.

Matoni rapport rasmi haqida so'z borganda ikki hil struktura tushunchasiga ham to'htalib o'tish lozim. To'qimachilik naqshi **makrostruktura** – bezak berilayotgan mato yuzasidagi takroriy raport motivining tartibini tavsiflaydi. Matematik nuqtai nazaridan faqat to'qimachilik naqshlariga ta'luqli bo'lgan bu struktura oddiy uzlukli bir intervalli xarakatni ifodalaydi. Cheksizlikka intiluvchi makrostruktura to'qimachilik naqshining konstruktiv mohiyatini ochib beradi. Ammo to'qimachilik rasmini asosiy xususiyatlarini to'liq ifodalashga qodir emas. Shuning uchun bir rapport maydonida motivlarni joylashishini xarakterlovchi boshqa struktura tushunchasini joriy etish extiyoji tug'iladi.



To'qimachilik rasmlarining **mikrostruktura** – bu bir rapportni yopiq maydonida naqsh motivining murakkab tuzilishi. Kompozitsiya uchun mikrostrukturani qaysi elementlar tashkil qilishi va ular bir birlari bilan qanday qilib bog'lanishi juda muhim.

Rapport kompozitsiyasini aslida struktura ichida struktura amalga oshiriladi. Bunday vaziyat katta xajmli rapportda ko‘p elementli naqsh motivlari bilan xarakterlidir. Bir jihatdan strukturani ichida struktura haqida so‘z borganda raportsiz to‘qimachilik rasmlari bunga ko‘proq ta’luqlidir. Masalan, ro‘mollar rasmidagi aniq bo‘laklarida (makrostruktura), murakkab naqsh motivlari bilan to‘ldirilgan (mikrostruktura) bo‘lishi mumkin.



8-rasm. Ro‘mol naqsh kompozitsiyalari.


Cheksiz rasimli raport strukturasi ochiq; yoki uning aksi raport rasmi strukturasi yopiq bo‘lishi mumkin. Ikkinchisiga donali mahsulotlar naqshi tegishli. Rapport rasmlarining oddiysidan to eng murakkabiga qadar tahlil qilganda: matolarni rapporli rasmlar bilan badiiy bezashda makrostruktura kam uchrashiga guvoh bo‘ldik. Rapport kompozitsiyasini qurish nazariyasi makrostrukturani uch turini, uch sxemasini ko‘rib chiqamiz (8-rasm).



b

b1

b2



9-rasm. Makrostrukturani uch sxemasi

Birinchi turidagi makrostruktura a-c rasmda ko'rsatilgan. Rapport shakli-kvadrat bo'lib, shunga mos ravishda rapport setkasi bir-biriga tutashuvchi kvadratlardan tashkil topgan. Bitta rapportda faqat bir motiv mavjud. Turli xil kompozitsion echimlarda rapport eni va bo'yi o'zgaruvchan bo'lishi mumkin, tabiiyki rapport setkasi va kompozitsiyaning ritmik qurilishi ham butunlay o'zgaradi. b-d rasmda ham 1 turdagi makrostruktura keltirilgan bo'lib, shakli to'g'ri to'rtburchakdir.

Ikkinchi turidagi makrostruktura a1-d1 rasmda keltirilgan bo'lib, kvadrat yoki to'rtburchak shaklida rapport mavjud, lekin rapport setkasi qurishda motivlarning nuqtali joylashishi kvadrat (to'rtburchak)ning burchaklari va markazi bilan belgilangan. Bunda rapport surilgan yoki siljigan deb ataladi. Nuqtalar o'rniga bir yoki ikki naqsh mativlarini qo'yish mumkin. Bu makrostruktura badiiy amaliyotda turli maqsadlar uchun turli chizmalar qurishda juda keng qo'llaniladi.

Uchinchi turidagi makrostruktura a2-d2 rasm to'qimachilik naqshlarida ko'p qo'llaniladi. Ikkinchi turdagi makrostrukturadan farqi shundaki, ikkinchi motivning birinchi motivga nisbatan yaqinroq joylashgan bo'lib, rapportda zig-zag yoki to'lqinsimon rasmlarni keltirib chiqaradi. Uchta turdagi makrostrukturalarni

bilish muhimligi shundaki; nuqtalar o'rniga plastik shaklli motivlar bilan almashtirilsa, yoki har bir nuqtada geometrik shakllar joylashtirilganda, muayyan ritmik tuzilishga ega bo'lgan kompozisiya xosil bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, struktura muayyan tarkibni ifoda eta olibgina qolmay, ma'lum sharoitlarda potensial imkoniyatlarni oshirib beradi. Konkret plastik motivlar bilan boyitilgan struktura estetik funksiyalarni ham bajarishga qodir.



Takrorlash uchun savollar:

1. O'tilgan barcha terminlarga izox bering.
2. Ritmlarning turlari haqida so'zlab bering.
3. Makrostruktura turlari mazmunini ochib bering.
4. Mikrostrukturaga misollar keltiring.

1.2. NAQSH KOMPOZISIYASINI QONUN VA QOIDALARI.

To'qimachilik naqshlarini yaratishda qo'llaniladigan kompozisiya qonun va qonuniyatlari real olam hodisalarining turli darajadagi aksi va ob'ektiv munosabatlarini umumlashuvi, hamda uzoq davom etgan borliqni estetik anglash badiiy amaliyoti jarayonida vujudga kelgan. Barcha san'at asarlarini yaralishining asosiy qoidasi – bu uning yaxlitligi, birligi va uni tashkil etuvchi elementlarning o'zaro mutanosibligidir.

Yaxlitlik – to'qimachilik mahsulotlaridagi naqsh kompozitsiyasining foni, rasmlari, naqsh elementlari, shakli va ranglarini ritm va plastikasining muvofiqlik proporsiyalarini to'g'ri topilganligini ta'minlab beradi. Bizga ma'lumki naqsh san'atida yuzasi, chiziqlar o'lchami, ranglar ko'lami va boshqa masalalar faqatgina 2 usul yordamida o'z echimini topadi.

1. Teng o'lchamli bo'lakga bo'lish. (1-rasm)
2. Teng bo'lmagan o'lchamli bo'laklarga bo'lish. (2-rasm)



1-rasm. Teng o'lchamli naqsh. 2-rasm. Teng bo'lmagan o'lchamli naqsh.

Naqsh va to'qimachilik bezaklari kompozitsiyasiga ikki xolat xosdir: nisbatan tinch va harakat xolatlari. Naqsh elementlarining motivlari proporsional munosabatda qurilgan naqsh kompozitsiyasi bir hil, teng va simmetriyaga asoslangan bo'lsa uni **statik kompozitsiyaga** kiritish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Statik kompozitsiyali naqshlar.

Agar naqsh kompozitsiyasining asosida motivlarning qarama-qarshiligi element o'lchamlarining har hilliligi, naqshlarning joylashish burchagi, orsidagi masofaning farqlilik prinsipi yotsa, ular **dinamik kompozitsiyalarga** tegishli bo'ladi (4-rasm).

Shaklda dinamika paydo bo'lishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

- shaklning o'lchamlarida tengsizlik bo'lsa, harakat ko'p miqdordan kam tomoniga yo'nalgan bo'lsa;
- shakl kontrast qismlarga bo'linganda kattaroq qismdan kichikroq qism tomon harakat bo'lsa;

- shakl ichidagi chiziqlar yoʻnalishining xarakteri qandayligiga koʻra shaklda turli yoʻnalishda boʻlsa;

- shaklda bir necha rang qoʻllansa, och, yorqin ranglar oʻz tomoniga dinamikani hosil qilsa;

- shaklning kompozitsiyasida qoʻllangan ritmik tuzilishlar ham dinamikani hosil qilishi mumkin.


Statika va dinamika bu – barcha naqsh sanʼatining shu jumladan toʻqimachilik naqshlarining asosidir.



4-rasm. Dinamik kompozitsiyali naqshlar.

Kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlaridan yana biri bu **proporsiya**dir. Uning asosida boshqa qonun va qoidalar kelib chiqadi. Proporsiya va proporsional munosabatlar barcha sanʼat turlari uchun eng katta sifatlovchi roʻl belgilaydi. Chunki sanʼat asarlari yaxlit va detallaridagi aniq mutanosibliklar bilan idrok etiladi. Naqsh sanʼatida esa proporsiya muhim faktor hisoblanib uning ifodaliligini belgilab beradi. Rasm yuzasi va fonining, naqsh motivlari va ularni tashkil qiluvchi detallarning oʻlchamlari, naqshning yoʻnalishi va boshqalar shular jumlasidandir.

Toʻqimachilik naqshlarining butun va boʻlaklarida proporsiya toʻgʻri tanlanmasa, uni sanʼat asari deyish qiyin. Proporsionallik qoidasi asosida 2 hil xulosaga kelish mumkin. Turli butun kompozitsiya teng boʻlakdan yoki teng boʻlingan boʻlaklardan tashkil topish mumkin. Misol uchun, bir hil naqshlar bir hil masofada joylashgan (5-rasm). Bunday naqsh sxematik va juda sodda naqsh sifatida qabul qilinadi.



5-rasm. Teng bo‘lingan naqshli matolar.



6-rasm. Turli masofa va burchakda joylashgan naqshli matolar.

Agar bir xillilik prinsipini buzgan holda turli o‘lcham yoki naqshlarni grafik ko‘rinishini o‘zgartirgan holda qo‘llansa, kompozitsiyada statika prinsipini saqlagan holda hilma-xillikka erishish mumkin. Ya’ni kompozitsiyada turli bo‘laklardan yoki naqshda turli o‘lchamdagi motivlar, turli burchak ostida turli masofada joylashgan bo‘ladi (6-rasm).

To‘qimachilik naqshlari masalalarini o‘rganar ekanmiz, bir xillilik tushunchasi faqatgina vizual tenglik ekanligini yoki har hillilik nisbiy ekanligini nazarda tutishini ta’kidlash lozim. Misol uchun, har xillikda xam **oltin kesim** deb ataluvchi muvozanat va mutanosiblikni topish mumkin (7-rasm).



7-rasm. naqsh va tabiatda uchraydigan oltin kesim.

Dizaynerlar uchun naqsh proporsiyalarini matematik aniqligi emas, balki, ularning inson ko‘ziga yaqqol tashlanadigan oydinligi muhimroq. Kompozisiya maqsadini ravshanligini ta’minlash uchun statika yoki dinamika bir biridan ustunlik qilishi, rang ochligi, grafik ishlovlari va boshqalar bir biriga nisbatan faol qo‘llanilishi lozim.

Naqshni ritmik va plastik harakatlar xarakterlaydi. Ritmik harakat deganda naqsh dog‘larini bir hil yoki turli interval orasida takrorlanish nazarda tutiladi. Plastik harakatlar deganda esa ravon, uzun va uzilmas va shu bilan birga bir harakatdan ikkinchisiga o‘tuvchi harakatlar tushuniladi. To‘qimachilik naqshlar kompozisiyasida plastik harakatlar ritmik harakatlardan ustunlik qiluvchi yoki aksi, ritmik harakatlar plastikdan ko‘ra ko‘proq qo‘llanilgan naqshlarni ko‘p uchratish mumkin (8-rasm). Naqsh yaratish jarayonida ikkita qarama-qarshi tizim (statika va dinamika) va motivlarning ritmik va plastik harakati qo‘llanilganda ularning birini dominant qilish, ikkinchisini unga bo‘ysundirish lozim. Bu **bo‘ysundirish qonuni** deyiladi va u bilan shakllar uyg‘unligiga erishish mumkin.



8-rasm. Ritmik va plastik xarakatli naqshlar.

Uchkomponentlik qonuni murakkab naqsh kompozitsiyasida naqsh motivlari va shakllarning turli-tuman harakatini aks ettirish uchun, naqshni o'lchamini yoki ritmik harakatini uch fazasini ko'rsatish yetarli. Misol uchun, uch o'lchamdagi barglarni tasvirlagan holda (katta, o'rta, kichik). Shu bilan birga bu barglarni turli tarafga aylantirgan xolda orasidagi masofani o'zgartirgan holda ham erishish mumkin (9-rasm).



9-rasm. Uchkomponentli naqshlar.

Kontrast qonuni – bu naqsh o'lchami, shakli, rangini bir biriga qarama-qarshi bo'lishidir. Kontrast naqshni yanada kuchaytiradi, agar naqsh turdosh effektli bo'lsa uni yumshatib ko'rsatadi. Kontrast qonuni asosida **gruppalashish qonuni** kelib chiqadi. O'lchami bo'yicha o'xshash, shakl va rang bo'yicha bir hil bo'lgan naqsh bo'laklari yaqin joylashtirilsa, ko'zga gruppalashgandek ko'rinishi ma'lum.

Shuni ta'kidlash joizki, to'qimachilik naqshlarida ma'lum qoidalar alohida emas, bir biri bilan bog'liq holda qo'llaniladi. Naqsh kompozitsiyasiga rang berayotganda rang uyg'unligi qonun-qoidalariga rioya qilgan holda individual yangilik va zamonaviylikni inobatga olib ijodiy yondashishi lozim. To'qimachilik rasmlarida murakkab naqsh turli ranglar yordamida o'z yechimini topgan bo'lsada, bitta rangga e'tiborni kuchaytirib ifodalash maqsadga muvofiq. Bu kompozision yechimning yaxlitligi va asosiy ma'nosining aniqligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamon bilan xamohang naqshlarni yaratishda kompozitsiyaning qonun-qoidalariga rioya qilmagan holda, ulardan chekinish ham

kerak bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida kompozitsiya qonuniyatlarini yangi badiiy g‘oyalar bilan boyitilishiga, takomillashib borishiga olib keladi. To‘qimachilik naqshlarini yaratish san‘atining murakkabligi shundaki, g‘oyada to‘ni butkul yakuniga qadar barcha qarama-qarshiliklarning (statika va dinamika, simmetriya va assimmetriya va b.) o‘zaro to‘qnashuvidadir.



Takrorlash uchun savollar:

1. Ijodiy soxa amaliyotida kelib chiqqan qonunlarni aytib o‘ting.
2. Naqsh kompozitsiyasi qonunlarini mazmunini ochib bering.
3. Statika va dinamika tushunchalarini aytib o‘ting.
4. “Oltin kesim” mazmunini yoritib bering.
5. Naqsh kompozitsiyasini yaratishda turli qonuniyatlarni bir vaqtda qo‘llash mumkinmi?
6. Zamonaviy naqsh kompozitsiyalarini yaratishda nimalarga etibor berish kerak?

1.3. TO‘QIMACHILIK NAQSHLARINING UMUMIY KLASSIFIKASIYASI.


Barcha murakkab va turli xodisalarni o‘rganish va tadqiq etishni osonlashtirish uchun ularni tizimlash va klassifikasiyalash zarur. To‘qimachilik mahsulotlarini badiiy bezashda qo‘llaniladigan naqshlar ham murakkab bo‘lganligi tufayli uni klassifikasiyalash maqsadga muvofiq.

Matoda naqsh hosil qilishni 2 turga, to‘qish va bosish jarayoni orqali hosil qilinadigan naqshlarga tizimlashtirish mumkin.

Matolarni mo‘ljaliga ko‘ra ham klassifikasiyalash keng tarqalgan: Bolalar kiyimi, bashang va kundalik, kostyumbop matolar, ustki kiyimlar uchun, inter‘er uchun va boshqalar (1-2-3-4-5-6-rasmlar).



1-rasm. Bolalar kiyimi uchun mo'ljallangan matolar.



2-rasm. Bashang liboslar ucun matolar.



3-rasm. Kundalik liboslar ucun matolar.



4-rasm. Kostyumbop matolar.



5-rasm. Ustki kiyimlar uchun matolar.



6-rasm. Inter'er uchun va boshqalar.

To'qimachilik naqshlari o'z navbatida yopiq strukturali (donali maxsulotlar) va ochiq strukturali rapportli kompozisiyalarga (matolar) bo'linadi (7-rasm).



7-rasm. Yopiq strukturali kompozitsiyalar.

Yana naqsh kompozitsiyalarini axromatik va xromatiklarga ham ajratish qiyin emas. Naqsh kompozitsiyalari statik va dinamik kompozitsiyalarga bo'linadi. Birinchi mavzuda qayd etilganidek statik va dinamik kompozitsiya strukturaviy tuzilmasidan tashqari emosional ta'siriga ko'ra ham farqlanadi. Statik konstruktsiya tinchlik va jiddiylik g'oyalarini ilgari sursa, ikkinchisi zaifdan xaddan ziyod faol, ekspressiv xarakatlarni ifodalaydi. Va nihoyat klassifikatsiya asosiga naqsh motivlarini ham olish mumkin. Naqsh kompozitsiyalarni tizimlashtirishda plastik xarakteriga ko'ra motivlar shaklini ham inobatga olish lozim. Bunda ularning geometrik, o'simlik va boshqalarga bo'linishi nazarda tutilmoqda.

Naqshning motivlari turli mavzu va sohalardan, masalan, geometriya, fanidan, floradan olinadi, ular inson tanasining yoki atrofidagi narsalarning tasviri bo'lishi mumkin. Naqsh motivlari uning asosiy elementi, uning qismidir. Bu bir element yoki bir nechta elementdan iborat bo'lishi va bir butun holda bezatilishi mumkin. Rassomlar motivlarni mohirona ishlatib, turli xil shakllarda turli uslublar yordamida yangi original naqshlar yaratishga muvaffaq bo'ladi.

Naqshning tasviriy mavzularini quyidagicha tasniflash mumkin:

- o'simlik mavzulari;
- geometrik mavzular;
- hayvonot mavzusi;
- koligraf mavzular;
- fantastik mavzular;
- astral mavzular;
- syujetli mavzular;
- abstrakt mavzular.

Geometrik mavzudagi naqshlar - texnikaviy va ramziy bezaklarni birlashtirish orqali vujudga keldi. Geometrik naqsh asosida real mavjud, ammo soddalashtirilgan va umumlashgan shakllar yotadi. Unda ritmik elementlarning ketma-ketligi va ranglar muhim o'rin egallaydi (8-9-rasmlar).



8-rasm. Geometrik mavzudagi naqshlar.



9-rasm. Geometrik naqshlarning libosda qo'llanishi.

O'simlik mavzusidagi naqshlar - bu geometrik naqshlardan so'ng keng tarqalgan bezakdir. Ular turli mamlakatlarda o'ziga hos milliyligi bilan ajralib turadi. Bunday naqsh turi o'simliklarning turli qismlarini o'z ichiga oladi: barglar, gullar, mevalar, birga yoki alohida-alohida holda. Eng keng tarqalgan o'simlik shakllari orasida: akantus, lotus, papirus, palma daraxti, dafna, uzum, eman va boshqalardir (10-11-rasmlar).



10-rasm. O'simlik naqshlari.



11-rasm. O'simlik mavzusidagi naqshlarning libosda qo'llanishi.

Hayvonot mavzulari - Qushlar va hayvonlarning tasvirlariga asoslangan holda, ham haqiqat, ham ro'yoga yaqin tasvirlardir. Aksariyat xollarda, bezak biroz fantastik holatga yaqinroq bo'ladi (12-13-rasmlar).




12-rasm. Hayvonot mavzulari qollanilgan matolar.




13-rasm. Animalistik printli liboslar.

Koligraf mavzular. Ushbu bezak alohida harflar yoki matn elementlaridan iborat. Xattotlik san'ati Xitoy, Yaponiya, Eron va qator arab mamlakatlarida to'liq rivojlangan va qadimiy Rossiyada qo'llanilgan bo'lib, dekorativ va amaliy san'atning turli xil buyumlarini bezashda muhim ro'l o'ynaydi (14-rasm).



14-rasm. Kolligrafik naqshlar

Fantastik mavzular. Bunday naqshning asosi xayoliy, mavjud bo'lmagan tasvirlardir. Qadimgi Sharq (Misr, Ossuriya, Xitoy va Hindiston) mamlakatlarida ajoyib hayvonlarning hayotidan sahnalarni tasvirlaydigan hayoliy naqshlar ayniqsa mashhur bo'lgan. O'rta asrlar davrida diniy taqiqlar (G'arbiy Yevropada, Vizantiya davrida Yaqin Sharq va Yaqin Sharqdagi musulmon mamlakatlarida) tufayli mashhurlik kasb etdi (15-16-rasmlar).




15-rasm. Fantastik mavzudagi naqshlar.



16-rasm. Fantastik mavzudagi naqshli liboslar.

Astral mavzular. Astral bezak (“aster” so'zidan - yulduz). Asosiy elementlar osmon, quyosh, bulutlar, yulduzlar tasviridir. Yaponiya va Xitoyda keng tarqalgan (17-rasm).



17-rasm. Astral mavzudagi naqshlar.

Syujet mavzular. Syujet bezaklari - janrli sahnalar, landshaftlar, uy-ro'zg'or buyumlari, asbob-anjomlar, transport vositalari, emblema va h.k. lar tasviridir (18-rasm).



18-rasm. Syujetli naqshlar.

Abstrakt mavzular. Abstrakt mavzudagi naqshlar ijodkor ichki kechinmalari, hayoloti va his tuyg'ularidan kelib chiqqan holda o'zining fikrlarini bayon etishidir. Bunday naqshlarda qandaydir voqelik, g'oya va yashirinlik yani mavhumlik mavjud (19-20-rasmlar).



19-rasm. Abstrakt naqshlar



20-rasm. Abstrakt naqshli matolar



Takrorlash uchun savollar:

1. To'qimachilik naqshlari klassifikatsiyalash va tizimlashtirish nima uchun kerak?
2. Ochiq va yopiq struktura naqshli naqshlarga izoh bering.
3. Statik va dinamik xarakterli naqshlarga misollar keltiring.
4. Naqsh motivlarini sanab o'ting.

1.4. NAQSH KOMPOZISIYASINI YARATISHNING IJODIY USULLARI.

Naqsh kompozitsiyalarini yaratish, tabiat olamini ob'ektiv mavjudligicha idrok etishga asoslangan (realism usuli) ijodiy usulida naqshlar yaratishda assosiasiya, fantaziya, tasavvur va jismlarni nazmiy anglashni roli muhimdir.

Rassom-dizayner siymolarni ifodaliligini, ta'sirchanligini chiqara olishi zarur. Rassom-dizayner uchun ikki asosiy ijod manbai mavjud. Birinchisi, asosiy va tuganmas manba tabiatning tashqi olami bo'lib, u inson ongidan tashqari mavjud turfa olamdir. Ikkinchi manba, ajoyib hayotiy kuchga ega xalq amaliy san'atidir.


Bejiz xalq san'atini tabiat bilan taqqoslanmaydi, chunki tunganmas siymolarni aynan tabiatdan oladi.

Xalq amaliy san'ati hozirgi kunda g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birinchidan, har bir xalqning milliy madaniyatini o'ziga xosligi.

Ikkinchidan, keng xalq ommasining zamonaviy ijodi.

Ommaviy ishlab chiqarilayotgan zamonaviy sanoat buyumlarida inson iliqlik va ruxiyat etishmovchiligini his qilmoqda. Xalq amaliy san'atida esa yahshilik, haqiqat va adolat g'oyalari samimiy va sof holda uchratish mumkin. Barcha san'at asarlari ma'lum ma'noda dizaynerning real tabiat olami predmetlarini tasavvuri natijasidir.

Abstraktlashmoq (mavxumlashtirmoq) dizayner uchun asosiy muhim xususiyatlardan biri bo'lib, buyumning bir qator xususiyatlaridan voz kechgan holda qandaydir alohida xususiyatini ajratib ko'rsatishdir (1-rasm).



1-rasm. Abstract naqshlar.

Assosiasiya – bu ikki va undan ortiq psixologik taassurot, his tuyg'u o'rtasidagi vujudga kelgan aloqadir. Assosiasiyaga asoslangan naqsh siymosini tabiat olamining tashqi ob'ektiv predmeti va xodisasini bevosita kuzatish yoki xotirada tiklashdir (2-rasm).



2-rasm. Asossiasiyaga asoslangan naqsh.

Assosiasiyaga asoslangan siymolarni shaklantirish jarayoni murakkabdir; odatda u bitta yagona emas, balki bir nechta, bir biriga o'xshash yoki turli xil siymolarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, assosiasiyani paydo bo'lishida fantaziya va xayolot dunyosi muhim ro'l tutadi.

Dizayner muayyan badiiy masalani echimini izlaganda, g'oyani etkazib beruvchi, mohiyatini ochib beruvchi vositalarni tanlovi muammosiga duch keladi. Zamon bilan xamnafas shakllar bilan boyitilgan badiiy vositalarni yaratishda, shakl xosil qilish qonuniyatlariga amal qilishni bilishdan tashqari, vositalar etarli bo'lmaganda bu qonuniyatlarni buzish ham mumkin. Bunda intuisiya, ijodiy fantaziya va badiiy xayolotiga suyangan holda ijod qilish kerak.



Takrorlash uchun savollar:

1. Naqsh kompozitsiyalarini yaratish usullarini sanab o'ting.
2. Xalq amaliy san'ati o'ziga xosligi.
3. Abstraktlashmoq dizayner uchun muhim xususiyatlari nimada?
4. Assosiasiyaga asoslangan siymolarni shaklantirish jarayoni murakkabligi nimada?

1.5. TUSNING TASVIRIY IMKONIYATI NAZARIYASI.

Barcha ranglar ularning turlarining beqiyosligiga qaramasdan 2 guruhga bo'linadi. Axromatik va xromatik ranglar. Uch xil tusli kompozitsiyalar axromatik

kompozitsiyalar sistemasida aloxida o‘rin tutadi. Ularning tasviriyl imkoniyatlari keng bo‘lib, o‘rganish va taxlil qilish, pirovardida xromatik kompozitsiyalarda ranglarning uyg‘un muvofiqligini qurishda effektiv natija beradi (1-rasm). Oq, qora va kulrang axromatik ranglar guruhiga mansub bo‘lib, kulrangning turli tuslari mavjud, ular bir-biridan och-to‘qligi bilan farq qiladi.




1-rasm. Uch tusli kompozitsiyaning tasviriyl imkoniyatlari.

Barcha jismlar tushayotgan yorug‘lik nurini bir qismini yutadi, bir qismini qaytaradi. Jism yuzasi qancha ko‘p nurni qaytarsa, shuncha och ko‘rinadi. Jumladan kul rang oq va qoraga nisbatan och yoki to‘qligini xarakterlaydi. Inson kulrangning 300-400 xilgacha tusini farqlashga qodir. Shunday qilib, axromatik ranglar tushunchasiga ta’rif beradigan bo‘lsak; rang tusiga ega bo‘lmagan, bir-biridan faqat och yoki to‘qligi bilan farq qiladigan ranglarga aytilishini tushunib oldik.


Yana shuni ta’kidlash joizki, yuqorida qo‘llanilgan “tus” tushunchasi tasviriyl amaliyotda ikki xil ma’noga ega. Birinchisi, “tus” tasviriyl asarning ranglar qatorini, bo‘yoqlar gammasini (sovuq, issiq) bildiradi. Rassomlar aynan shu “tus” tushunchasini tasviriyl asarlarga tarif berayotganda qo‘llashadi. Ikkinchi “tus” tushunchasi esa asarning och yoki to‘qligi nisbatiga ta’rif berilganda qo‘llaniladi.

Uch tusli kompozitsiyaning tasviriyl imkoniyatlari ikki tusli kompozitsiyalarga nisbatan boy va ifodali ko‘rinadi (2-rasm). Uch tusli ornamental kompozitsiyalarda emotsional vazmin osoyishtalik, ekspressivlikgacha xolatlarning talqin etish imkoniyatlari ko‘payadi.



2-rasm. Uch tusli kompozitsiyalardan namunalar.

Bir-biridan bir xil darajada farq qiluvchi ma'lum sonli pog'onaga ega axromatik qator teng pog'onali deb ataladi. Teng pog'onali axromatik qatorni qurish unchalik qiyin emas, buning uchun markaziy kul rangida 50 % qora va oq bo'lishi kifoya, ya'ni qoraga oz-ozdan oq rangni qo'shib boriladi (3-rasm).




3-rasm. Bir kompozitsiyada axromatik ranglarni qo'llanilishi.

To'qqiz pog'onali Axromatik qatorda o'rtadagi rang barcha ranglarni 2 guruhga och va to'q ranglarga ajratib turadi. Markaziy rang neytral va sookin rang hisoblanib, (kompozitsiyalarda) mazkur rang qo'llangan kompozitsiyalar tegishli xisssiyatlarni uyg'otadi. Ranglarning tuslarini o'rgatish ko'pgina olim va rassomlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Chunki bitta rangning turli tuslari inson ruxiyatiga turlicha emotsional ta'sir ko'rsatadi (4-rasm).




4-rasm. Axromatik ranglarni turli mutanosiblikda qo'llanilishi.

Bu erda bir savol tug'iladi. Axromatik ranglar muvofiqligini uyg'unlik deb atash mumkinmi? Har qanday uyg'unlik asoslangan manbai bo'lishi lozim, ammo barcha asoslangan manbalar uyg'un bo'lavermaydi. Uyg'unlikni vujudga kelishi uchun eng kamida 3 xil tus bo'lishi ta'lab etiladi. Bular eng mashhuri uch xil tusdagi kulranglardir. Ularni axromatik qatorga joylaganda bir xil intervalda o'rnashadi. Ko'pgina rassom va dizaynerlar ranglar bilan ishlaganda tuslarning o'zaro mutanosibligini roli, kompozitsiyada axromatik ranglarni muvofiqligini aniqlashlari juda muhimdir (5-rasm).



5-rasm. To'qqiz pog'onali axromatik qator.



Takrorlash uchun savollar:

1. Axromatik ranglarni sanab o'ting.
2. Uch tusli kompozitsiyalarning tasviriyl imkoniyatlari qanday?
3. To'qqiz pog'onali axromatik qator qanday tuziladi?
4. Axromatik ranglar muvofiqligini uyg'unlik deb atash mumkinmi?

1.6. TO'QIMACHILIK NAQSHLARI VA TABIIY MANBALAR.

Turfa tabiat dunyosi inson borlig'ini butun umri davomida o'rab turadi. Nafaqat o'rab turadi, balki, uning shaxsiyatini shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Tabiat ta'sirida inson go'zallik, uyg'unlik va mukammallik haqida o'zining ilk tasavvuriga ega bo'ladi.

Tabiat o'simlik va xayvonot dunyosining turfa motivlari – bu qadimdan to xozirgi kungacha butun dunyo xalqlari uchun tuganmas ijod manbai bo'lib kelgan. Xalq amaliy an'analariga murojat qiladigan bo'lsak, matolar, to'qimachilik maxsulotlari, kashtalarda biz o'simlik va xayvonot mavzusidagi naqshlarga duch kelimiz. Albatta, vaqt o'tib insonni tabiat xodisalariga bo'lgan qarashi, munosabati, uni qabul qilishi va talqini o'zgarib boradi. Bunga, milliy qadriyatlar, jamiyatning turmush tarzi, ishlab chiqarishni rivojlanishi, jamiyatning badiiy qarashlari kabi hal qiluvchi omillar sabab bo'ladi. Tabiat motivlari qanday talqin etilmasin – realistik, stilizatsiyalangan, ramziy yoki shartli bo'ladimi rassom-dizayner vazifasiga oddiy bezak berish emasligini unutmasligi lozim. Zero, naqsh kompozitsiyasi, bu uning ichki kechinmalari, ijodiy izlanishlari natijasidir. Shuning uchun yakuniy natija asl nusxadan yiroq bo'lishi tabiiy xol hisoblanadi.

Rassom-dizaynerning tabiiy o'simlik va xayvonot motivlarini anglab uni to'qimachilik mahsulotlariga ko'chirishini o'ziga xos tilini anglashi muammosi abadiydir (1-rasm).

To'qimachilik naqshlarida qadimdan o'simlik motivlari ustunlik qilib keladi. O'simlik shakllarini to'qimachilik naqshlariga aylanish ijodiy jarayonini uch bosqichda ko'rish mumkin.

- tabiiy shakllarni ornamental motivlarga transformasiyasi;

- asosiy rangni tanlash;
- rapport naqshini qurish.



1-rasm. Matodagi tabiat motivlari ifodalangan naqshlar.

Birinchi ikki bosqich xaqiqatda hal qiluvchi bo'lsa, uchinchi yakuniy bosqich esa rapport naqshlarini qurish prinsiplariga asoslanadi. O'simlik shaklini to'qimachilik naqshiga aylantirishda, avval tabiiy motivni ishonchli badiiy ifodali siymosini topish zarur. Bundan tashqari naqshni matoga tushirish usullarini imkoniyatlarini ham inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Tabiiy motivni ornamental obrazini yaratish uchun tabiatda naqshni ko'ra bilish, uni his qilish, motiv elementlarini ritmik tuzilmasini ochib ko'rsata bilish, plastik shakl chiziqlarini faol va keskin talqin etish kabi shartlarni bajarish lozim.

Endi o'simlik motivlarini talqin etish usullariga to'xtalib o'tsak:

1. Chiziqli ifodalash usuli uch hil echimga ega:

- Bir hil qalinlikdagi ingichka chiziqlarni qo'llash. Odatda kichik masshtabdagi naqshlarda qo'llaniladi.
- bir hil qalinlikdagi yo'g'on chiziqlarni qo'llash. Bu usul naqshga mahobatlilik, faollik va keskinlik baxsh etadi.
- turli qalinlikdagi chiziqlarni qo'llash. Ushbu usul bir muncha murakkab bo'lib, keng badiiy ifodali imkoniyatga ega (2-rasm).



2-rasm. Naqshni chiziqli ifodalash usuli.

2. **Dog‘lar yordamida ifodalash usulida** shakllar umumiy siymoli tarzda tasvirlanadi (3-rasm).



3-rasm. Naqshni dog‘lar yordamida ifodalash usuli.

3. **Chiziq va dog‘lar yordamida ifodalash usuli.** Tabiat motivlari tasvirlarini ifodalashda keng qo‘llaniladi (4-rasm).



4-rasm. Naqshni chiziqli va dog‘lar yordamida ifodalash usuli.

Naqshlar qaysi usulda ifodalanishidan qat’iy nazar, naqsh kompozitsiyasi yaxlit siymoga va ritmga ega bo‘lishi kerak. O‘simlik motivlarini to‘qimachilik

naqshlariga transformasiyasini o'rganganda, o'simlik motivlarini rangi va ranglar uyg'unligini muayyan qaytarilishi va hattoki butkul o'zgarishini ham inobatga olish joiz. Tabiat motivlarini asl ranglarini to'qimachilik naqshlarida qo'llash ba'zi noqulayliklarni tug'diradi. Shuning uchun tabiat motivlari oldindan tanlangan koloritda, sovuq yoki iliq gammada, qardosh yoki kontrast ranglarda shartli ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, tabiat motivlari turfa va ularni to'qimachilik mahsulotlarini badiiy bezashda qo'llashni qonun qoidalari ham xilma hildir. Uni har bir mavzuda yani o'simlik yoki xayvonot naqshlarini ifodalashni alohida o'rganish maqsadga muvofiqdir.



Takrorlash uchun savollar:

1. O'simlik shakllarini to'qimachilik naqshlariga aylanish ijodiy jarayoni bosqichlarini sanab o'ting.
2. Chiziqli ifodalash usuliga izoh bering.
3. Dog'lar yordamida ifodalash usulili qanday bajariladi?
4. Chiziq va dog'lar yordamida ifodalash usuliga misollar keltiring.

1.7. MONOKOMPOZISIYANI QURISHDA UMUMIY PRINSIPLAR.

Avvalgi ma'ruzalarda rapport rasmlari matolarga naqsh motivlar yoki kompozisiya qurishni o'ziga xosligini ko'rib chiqilgan edi. To'qimachilik mahsulotlari assortimentida takrorlanuvchi rapportga ega bo'lmaganlari ham mavjud. Ularga misol qilib, gilam, gobelen, panno, ro'mol, dasturxon, salfetka, emblema va bosqalarni keltirish mumkin. Aynan shunday mahsulotlar naqshlari kompozisiyasiga *monokompozisiya* deyiladi (1-rasm).



1-rasm. Monokompozisiya.

Monokompozisiyani qurish prinsiplari donali mahsulotlarga tegishli bo'lgan, o'ziga xos xususiyat va qonun-qoidalariga ega. Ularning ikki asosiylaridan:

- monokompozisiya doim aniq o'lchamlar bilan belgilangan muayyan yopiq yuzada quriladi, shuning uchun monokompozisiyani hamma elementlari qat'iy komponovkani talab etadi;
- barcha element va motivlarning joylashuvi shunday bo'lishi kerakki, yopiq kompozision struktura hosil bo'lishi lozim.

Zamonaviy kompozision echimlarda motivlarning ayrim elementlari yopiq strukturadan tashqariga chiqish xolatlari ham kuzatiladi. Umuman olganda esa sodda an'anaviy kompozision echimlar, chetlari naqshli xoshiya bilan chegaralangan rasmlarda namoyon bo'lgan. Bundan tashqari kompozision echimning boshqa variant, xoshiyadan to'liq yoki qisman voz kechgan holda assimetrik kompozisiyalarni qo'llash usuliga asoslangan (2-rasm).




2-rasm. Assimetrik monokompozisiya.

Murakkab ko'p elementli kompozisiyalarda motivlar funksiyasiga ko'ra *asosiy (aktiv) va ikkinchi darajali (passiv)*larga farqlanadi. Yopiq strukturani yaratishda naqsh motivlarini siymosi muhim o'rin egallaydi. Bunda siymo ko'zga yaqqol tashlanishi uchun, oddiy geometrik shakl (aylana, oval, kvadrat, uchburchak va xokozo)ni eslatishi darkor. Bu yerda yuzani inson ko'zi bilan ilg'ash va qabul qilish qonunlari, yuzani aktiv va passiv qismlarga ajratib idrok qilishi muhim ahamiyatga ega.

Aktiv yuza sifatida markaziy qism hisoblanadi, chunki ko'z aynan shu joyni ilg'ab, o'sha yerda joylashgan tasvirlarni qabul qiladi. Shuning uchun kompozision markazni aynan yuza markazi atrofida joylashtirgan ma'qul. Umuman olganda monokompozisiya echimini ifodalovchi shartlari va vositalari deb:

- berilgan yuzada naqsh strukturalarini komponovkasi;
- yuzani bo'laklarga ajratish;
- yuzada elementlarning ritmik tuzilmasi;
- kompozision markaz dominantini yaratishga aytiladi.



3-rasm. Xoshiyali monokompozisiya.

Monokompozisiyaning umumiy strukturasi elementlarini barqaror muvozanatini ta'minlash muhim o'rin egallaydi. Muvozanatini oddiy ko'rinishlarini sanab o'tamiz:

Statik muvozanat - yuzada shaklni simmetrik joylashuvi va shakllarni simmetriyasidan yuzaga keladi.


Dinamik muvozanat - yuzada shakllarni assimetrik joylashuvidan, ularning chapga yoki o'ngga, tepaga yoki pastga siljishidan hosil bo'ladi.

Yuzada shakllarni statik muvozanatini 3 turdagi kompozision variantlari mavjud:

- shakllar yuzaning markazida mujasamlashgan;
- shakllar yuzaning yuqori qismiga siljigan;
- shakllar yuzaning pastki qismida joylashgan.


Bunda shakl va yuzaning o'lchamlari muhim hisoblanadi. Shakl muvozanatini xosil qilishda rang va faktura hal qiluvchi o'rin egallaydi. Misol uchun, yorqin ranglar to'q ranglardan og'irroq, issiq ranglar sovuq ranglardan og'irroq, kuchaytirilgan va fakturali ranglar, kam boyitilgan va silliq ranglardan og'irroq. Yana shunisi qiziqki, shaklning "vazni" yaxlit fonda kattalashadi. Oy musafo osmonda, bulutli osmondan ko'ra og'irroq tuyuladi.

Shunga ko'ra shakl va fon orasida contrast ko'paygan sari, shaklni kichik hajmda olish maqsadga muvofiq. Elementning katta xajmini, boshqa elementlarning yorqin rangi bilan muvozanatga keltirilish mumkin.



4-rasm. Yuzani bir xil o'lchamdagi (statik) bo'laklash sxemasi.

Monokompozisiya echimini topishda yuzani bo'laklarga bo'linishi bilan birgalikda boshqa ifodalovchi vositalar yordam beradi. Ayrim xollarda bo'laklar bir xil o'lchamda (statika) bo'lsa (4-rasm), boshqa holatda bo'laklarning tengsizligi, qarama qarshiligi (dinamika) asos bo'ladi (5-rasm).



5-rasm. Tengsiz, qarama qarshi (dinamika) bo'laklash sxemasi.

Yuzani bo'laklarga ajratish chiziqlar (to'g'ri va egri chiziqlar), yoki ranglar orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari bo'laklash bir yoki bir necha yo'nalishda ham amalga oshiriladi. 4-5-rasmda keltirilgan sxemalar turli kompozision yechimlarda qo'llanilishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak yuzani egri yoki spiral chiziqlar bilan bo'laklash oson emas. Bir yuzani bir nechta egri chiziqlar bilan bo'laklash esa alohida e'tiborni talab etadi.

Qanday holat bo'lishdan qat'iy nazar rassom-dizayner monokompozision naqsh yaratayotganida yuzada qarama-qarshi xarakatlarni, turli yo'nalgan dinamik kuchlarni o'rtasida muvozanatni topib, naqsh uyg'unligini yaratishi darkor.

Monokompozisiyaning yorqin ifodalovchi vositasi bo'lib, bu shakl, o'lcham, burilish va ular orasidagi masofa hisoblanadi. Agar motivlar o'rtasidagi munosabatlar tenglik, bir xillik, simmetriyaga asoslangan bo'lsa, bu kompozisiyalar statikdir; Aks xolatda, agar motivlar orasidagi munosabatlarning bir parametrida bo'lsa ham kontrastlik kuzatilsa, bunday kompozisiyalar dinamikdir. Dinamik kompozisiyada motivlarning o'zaro ta'siri asosida yaratiluvchi 3 ta tipik sxemalarni ko'rib chiqamiz. 6-rasmda barcha elementlar bir xil shaklga va o'lchamga ega va bir xil burchakda joylashgan. Faqatgina motivlar orasini har xil masofalargina ma'lum dessonans va keskinlikni yuzaga keltirmoqda.




6-rasm. Dinamik kompozisiya, 1-sxema.

Kompozisiyaga dinamik kuchlanishini ta'minlash uchun ayrim qismlarda elementlarni zichlashuvini, boshqa qismlarda ularning siyraklashuvini ta'minlash etarli.



7-rasm. Dinamik kompozisiya, 2-sxema.

7-rasmda motivlar turli o'lchamga ega, bir biridan turli masofada joylashgan. Shu ikki parametrlarning kontrasti tufayli kompozisiyaning dinamikasiga erishilgan.



8-rasm. Dinamik kompozisiya, 3-sxema.

8-rasmda dinamik vaziyat o'lchamlarning, motivlarning joylashish burchagi va ularning orasidagi masofa sababli yuzaga kelgan. Monokompozisiya qurishda kompozision markazni yoki dominantani tashkil qilish muhim o'rin egallaydi. Naqshli rasmda dominant bir yoki bir necha naqsh motivlar orqali ifodalanadi.

Kompozitsiyada dominantni amalga oshirishning bir necha turlarini misollari bilan ko'rib chiqamiz. 9-rasmda elementlarni sayoz va bir tekis joylashuviga nisbatan, dominanta bir necha elementlarning gruppashuvi va konsentrsiyalashuvi yo'li bilan ajratib ko'rsatilgan.



9-rasm. Dominantani ifodalash 1-usuli.

10-rasmda dominanta rang bilan ajratib ko'rsatilgan, qolgan elementlar bir xil o'lcham va shaklga ega.




10-rasm. Dominantani ifodalash 2-usuli.

11-rasmda- Dominanta kontrast shakl vositasida amalga oshirilgan.



11-rasm. Dominantani ifodalash 3-usuli.

12-rasmda dominanta strukturani bir elementi o'lchamini kattalashtirish evaziga yuzaga keladi.




12-rasm. Dominantani ifodalash 4-usuli.

13-rasm - bu erda 2 ta kompozision markaz bo'lib, 1 tasi 2 chisiga bo'ysunadi.



12-rasm. Dominantani ifodalash 5-usuli.

Xulosa qilib aytganda, Monokompozisiya uchun dinamik holat, yuzani assimmetrik bo'laklarga bo'lish, shakl, o'lcham, yo'nalish, rang va fakturani kontrastligi xosdir. Shuni aloxida aytib o'tish joizki ko'p xollarda Monokompozisiyada kompozision markazni xosil qilish, motivlarni ritmik tuzilishi bilan bog'liq.



Takrorlash uchun savollar:

1. Monokompozisiyaga ta'rif bering.
2. Assimmetrik monokompozisiyaga misollar keltiring.
3. Xoshiyali monokompozisiyaga misollar keltiring.
4. Murakkab ko'p elementli kompozisiyalarda motivlar funksiyasiga ko'ra qanday farqlanadi?
5. Statik muvozanatga izoh bering.
6. Dinamik muvozanatga izoh bering.

1.8. TO'QIMACHILIK BUYUMLARINI MODELLASHTIRISHDA NAQSHLARNI JOYLASHISHI.

To'qimachilik mahsulotlarini badiiy bezashda dizayner-rassomlar ijodiy manbani milliy san'at an'analari va tarixiy merosidan olishgan. Zero turli davrlarda tabiat xodisalari, xalq ijodi turlicha talqin etib kelingan, bu esa o'z navbatida ijod uchun tuganmas manba bo'lib hizmat qiladi.

Yaxlit donali to'qimachilik buyumlari (galstuk, sharf, ro'mol, fartuk va h.k.) murakkab va oddiy naqshli kompozitsiya bilan bezatilgan bo'lishi mumkin. Ulardagi naqshlar inson nigohi bilan bosqichma-bosqich qabul qilinadi, avval ko'proq xarakterli chiziqlariga e'tibor qaratib, so'ng ikkilamchi detallariga ahamiyat beriladi. Barcha murakkab naqsh strukturasi bir ko'rishda e'tiborni jalb etganligi sababli muhim hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida kompozitsion sxemani tuzishda dizaynerlarning ijodiy yondashishi muhimligini belgilab beradi. Bu sxema murakkab bo'lishiga qaramasdan aniq va konstruktiv bo'lishini xarakterlaydi. Shuning uchun kompozitsiyani yaratishdan avval, uning har bir chizig'ini, ritmik elementini, tekislikdagi naqshlar kompanovkasi jiddiylik bilan o'rganilishi va yaratilishi lozim.

Yaxlit donali to'qimachilik buyumlari kostyum siymosini yakunlovchi ommabop element sifatida zamonaviy aksessuar bo'lib, uning dizayni hozirgi kunda dolzarb masalalardan xisoblanadi (1-rasm).

Ayollar, erkaklar va bolalar kostyumiga ta'luqli bo'lgan to'qimachilik mahsulotlari assortimenti o'rganilganda ularni ikki usulda badiiy bezash turlari aniqlandi.

1. To'quvchilik yordamida naqshlar ishlab chiqish.
2. Naqsh bosish usuli.

Hozirgi kunga kelib qo'l mehnati yordamida to'qimachilik mahsulotlariga kompozitsion naqsh chizish bilan badiiy bezashning uchinchi usuli zamon talabiga aylanganini ta'kidlash joiz.



1-rasm. Sharflar obraz yaratishda muhim element.

To‘qimachilik maxsulotlariga badiiy bezak berish usullaridan biri “Batik” texnikasi ya’ni, maxsus bo‘yoqlar bilan matoga naqsh chizish yordamida kiyim assortimenti dizaynini yanada boyitishda keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu buyumlar orasida sharf ro‘mol va x.k. lar alohida o‘rin tutadi (2-rasm). Asrlar davomida ushbu buyumlar ayollar kostyumining an’anaviy elementi bo‘lib ularning naqshi va turlari beqiyosdir. Ro‘mollar vazifasiga, yoshiga va xududlarga ko‘ra turlarga bo‘linadi.

Sharflar Evropa modasida XVIII asrda kirib kelgan bo‘lib, to‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi mato bo‘lagi, klassisizm davridan urf bo‘la boshlagan. Xozirgi kunga kelib sharf zamonaviy ayollar garderobini ajralmas qismiga aylangan. Ushbu yaxlit donali buyumlar ikki va undan ortiq metr uzunlikda bo‘lib, boy bezagi, noyob naqshlar shakllari, kontrast ranglari bilan insonlarni xayratga solib keladi.



2-rasm. Batik texnikasi yordamida badiiy bezatilgan ro‘mol va sharf.

Ro‘mol va sharflar zamonaviy kostyumda o‘zining mustahkam ajralmas o‘rinini egallab, turli dekorativ vazifani o‘taydi.

1. U kostyumning asosiy aksenti bo‘lib, rang yuklamasini bajaradi va ro‘mol-galstuk, yelkasiga osib yurish uchun shal bo‘lib hizmat qilishi, bunda ro‘mol yoki sharf kiyimga nisbatan kontrast rangda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

2. Sharf yoki ro‘molni, bir-biridan keskin farq qiluvchi kostyum elementlarini bir biriga bog‘lovchi element sifatida qo‘llash mumkin. Buning uchun ularda kiyim bilan ornamental yoki koloristik uyg‘unlikda bo‘lishi talab etiladi.

Ro‘mollarda naqsh rapporti 1, 2, 3, 4 bo‘lakdan iborat bo‘lib, kompozitsiyalar qaytariladi. Agar ro‘molning markaziy qismi bo‘sh bo‘lsa, chet qismlari naqshinkor bo‘lishi tavsiya etiladi. Hozirgi zamonaviy ro‘mollarda assimetriya va dinamikani kuzatish mumkin. Assimetrik kompozitsion sxemalarning bir necha turlari mavjud.

- Ro‘mol yuzasi diagonal bo‘yicha bo‘linadi, natijada ikkita uchburchak hosil bo‘ladi va ularga turli naqshlar bilan bezak beriladi.

- Ro‘mol yuzasi odatiy to‘rt bo‘lakka bo‘linadi, ammo turli kattalikdagi va zichlikdagi naqshlar bilan to‘ldiriladi.

- Turli burchaklarda har hil mavzulardagi naqshlar joylashtiriladi, ular rang va o'lchami bilan o'xshash bo'ladi.

Ro'mollarning assimmetrik naqsh echimida geometrik markazi siljigan va bir kompozitsiyada bir necha markaz bo'lishi mumkinligini ham unutmaslik kerak. Agar ro'mol kompozitsiyasi xoshiyada joylashgan bo'lsa, uning ham bir necha echimlari mavjud. Xoshiyalar bir necha turli chiziqlardan iborat bo'lishi yoki to'rt tarafdin turli naqshli bir kompozitsiyani tashkil etishi mumkin. Naqsh kompozitsiyasini tanlashda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim (3-rasm).

- Kompozitsiyaning xar bir elementlarida (fon, xoshiya, mavzu) muvozanatni saqlash;
- Kompozitsiyani xoshiya yoki barcha naqsh elementlarini markazga qarab yo'naltirish yordamida tugallanganligiga erishish;
- Ranglar mutanosibligi;
- Kompozitsiyani umumiy yig'uvchi kompozision markazini ajratish;




3-rasm. Ro'mol yuzasini assimmetriya prinsipi asosida taqsimlanishi.

Donali to'qimachilik buyumlari o'z vazifalari va maqsadiga ko'ra turli ravishda kompozision tuzilishga ega bo'ladi. Dizayner kostyumga dekorativ urg'u beruvchi donali yaxlit buyumlarni kompozitsiyasini loyixalashdan avval, yaratilishi rejalashtirilgan buyumni qiyofasini tanlagan xolda, san'atning bu yo'nalishini zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan xolda, kostyum ansamblini sinchiklab

taxlil etish lozim. Bu erda inson obrazi bilan uyg'un bo'lgan kiyim elementlarining umumiy yig'indisi nazarda tutilgan. Ro'mollar dizaynida keng qo'llaniladigan mavzulardan tabiat mavzusi: bog', gullar, barglar, g'unchalar, mevalar, o'tlar, daraxt va butalar, shu bilan birga xayvonot olami: kapalaklar, qushlar va boshqalar. Ular ro'mol va sharf dizaynida turli tarzda: grafik echimda, ifodali, applikatsiyali, tabiiy yoki stilizatsiyalangan holda uchraydi. Shu bilan birga barcha qayd etilgan mavzular kompozitsiyada shartlilikini saqlab qoladi. Ayni paytda turli xil echimga ega geometrik mavzular: grafik xarakterdagi och ranglar qo'llangan oddiy rasmlardan, to ifodali talqindagi murakkab rasmlar ko'p uchraydi. Bu jarayonda rang va yorug'lik, turli masshtabdagi shakllar, har hil masofa va ritmlar qo'llaniladi. Sharf dizaynida geometrik va tabiiy shakllar, hamda ko'rgazmali va milliy naqshlar mavzu sifatida hizmat qilishi mumkin. Sharfning asosiy joyi uning chetki qismi bo'lib, hoshiyasidagi naqshlarning proporsionalligiga, koloristik echimiga, shakllarning alohida e'tibor bilan bezatilishiga urg'u berish maqsadga muvofiqdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, donali yaxlit to'qimachilik buyumlari ayniqsa geometrik naqshli sharf turli jinsdagi va yoshdagilarga mo'ljallangan kostyum ansambliga mos tushadi. Erkaklar sharfi bezagida dinamika bo'lmaydi, shunga qaramasdan undagi naqshlar etarlicha ifodalidir. Sharf va ro'mollarda asosiy maydonni egallovchi rangning xukm surishi muxim bo'lib, zamin satxi deyiladi. Erkaklar sharfida ranglarning kompozitsion echimi murakkab xisoblanadi. Bu jarayonda bir biriga yaqin o'xshash ranglarni qo'llanilishi yutuqli chiqadi. (4-5-rasm)



4-rasm. Sharf yuzasini simmetriya prinsipi asosida taqsimlanishi.



5-rasm. Sharf yuzasini assimetriya prinsipi asosida taqsimlanishi.

Ayollar sharflari turli ornamental mavzuga oid simmetrik va assimetrik kompozitsion qurilishga ega bo'ladi. Bu jarayonda sharfning chetidagi turli xarakterdagi naqshlar tugallangan kompozitsiyasini ta'minlovchi shunday shakllar majmuasini va koloristik echimni topish maqsadga muvofiqdir.



Takrorlash uchun savollar:

1. To'qimachilik mahsulotlarini badiiy bezashda qo'llaniladigan ijodiy manbaalar haqida so'zlab bering.
2. Yaxlit donali mahsulotlar sanab o'ting.
3. Ro'mol va sharf yuzasini simmetriya va assimetriya prinsipi asosida taqsimlanishini sxematik ko'rsatib bering.

1.9. TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI NAQSHINI KOSTYUM LOYIHALASHDAGI O'RNI

Batik texnikasining tarixi. Batik texnologiyasi tarixi 2000 yildan ortiq davrni o'z ichiga oladi. Qadim zamonlardan ko'plab millatlar batik texnologiyasi asosida matolarga badiiy bezak beribishgan. Batik san'ati Hindiston, Xitoy, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika, Shimoliy Amerikada mashhur bo'lgan. Batik san'atining rivojlanish markazlaridan biri Indoneziyaning Java orolidir. XVII-XVIII asrlarda batik Indoneziyadan Evropaga kelgan va keng tarqalgan (1-2-rasm).



1-rasm. Tarixiy fotolavha.

2-rasm. Batik bajarilish jarayoni.

Batik tushunchasi haqida. Batik – bu indoneziycha soʻz boʻlib, ba- “mato” tik- “tomchi degan ma'noni anglatadi. Batik – bu qadimiy texnologiya hisoblanib, turli xil zahira



(rezerv)lash vositalari va boyoqlardan foydalangan holda qoʻl mehnati orqali matoda kompozisiya yaratish, matolarga badiiy bezak berish usullaridan biridir (3-rasm). 2009 yil 2 oktyabrda “insoniyatning ogʻzaki va ma'naviy merosi”ga bagʻishlangan YuNESKOning

asarlari ro'yxatiga kiritilgan.



3-rasm. Matoga batik yordamida ishlangan kompozisiya.

Batik texnikasi uchun - ipak, paxta, jun, sintetika va boshqa matolar qo'llaniladi. Bo'yoqlarning kesishuvida aniq chegaralarni olish uchun *zahira* deb ataluvchi maxsus retseptor (kerosin, benzin, suvga asoslangan holda - tanlangan texnikaga, matoga va bo'yoqlarga qarab) *rezervlar* ishlatiladi. Bundan tashqari mo'yqalam, boyoqlar va podramniklar kerak bo'ladi (4-5-6-rasmlar).

Batik texnikasida ishlatiladigan mehnat qurollari



4-rasm. batik uchun zahira (rezervlar)



5-rasm. Chanting - issiq rezerv uchun.

Shisha trubochka-sovuq batik uchun.



6-rasm. Mato o'lchamiga ko'ra o'zgaruvchi podramnik.



7-rasm. Maxsus bo'yoqlar.



8-rasm. Turli qalinlikdagi mo'yqalamlar.


Batik turlari. Bir necha batik turlari mavjud - issiq, sovuq, erkin, tugunli va xokazo. Ular bir-biridan matoga zaxira berish bilan farqlanadi.

Sovuq batik shoyi hamda, boshqa matolarda qo'llaniladi. Sovuq batikda asosan ishlatiladigan bo'yoq hamda zahira muhim ro'l o'ynaydi. Zahira ikki xil ko'rinishda bo'ladi: quyuq (rezina asosida), suyuq (benzin asosida). Odatda zahiralar uy sharoitida tayyorlasa ham bo'ladi. Shuningdek tayyor zahiralar ham mavjud. Zahiralar rangli va rangsiz bo'lishi mumkin. Sovuq batik uchun zahira maxsus asboblari - shisha naychalar (benzinli zahira uchun) yoki tyubik (rezina

asosli zahira)lar asosida ishlatiladi. Sovuq batik bir qavatli bo`lib, unda kuchli diqqat va tartib talab etadi (9-rasm).




9-rasm. Matoga zahira bilan chizish.



10-rasm. Sovuq batikda bajarilgan ishlar.

Issiq batikni sovuq batikdan farqi shuki, unda boshqa turdagi rezerv ishlatiladi. Mum yordamida zahira tayyorlanadi. Unga ham mahsus: “Chanti” nomli asbob qo`llaniladi. Mum zahirasi matoga surtilgan joylar rang olmaydi va u chegara qism bo`lib hisoblanadi. Issiq batik bunday nomlanishiga sabab, unga ishlatiladigan mum "issiq" erigan holatda ishlatilinishi. Ushbu usul asosan paxta matolarini bo'yash uchun qo`llaniladi.



11-rasm. Chantingda zahira yurgizish.



12-rasm. issiq batik texnikasida bajarilgan ishlar.

Tugunli batikda mato mahsus tugunlarga bog'lanadi va bo'yoqlarga botiriladi. Mato bo'yalib bo'lgandan so'ng tugunlar o'rnida ajoyib naqshlar paydo bo'ladi. (13-rasm)




13-rasm. Tugunli batikda bajarilgan ishlar.

Batik texnikasi hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan, chunki bu texnika ko'p qo'l mehnatini talab etsada, uning yordamida turli, betakror, bejirim libos, sharf, ro'mol va boshqa aksessuarlar yaratish mumkin (14-rasm).



14-rasm. Batikda bajarilgan liboslar.



Takrorlash uchun savollar:

1. Nima uchun batik faqat issiq o'lkalarda rivojlangan?
2. Batik texnikasini texnologik jarayonini sanab o'ring.
3. Batik turlari asosan nimasi bilan farq qiladi?
4. Batik texnikasining hozirgi kundagi dolzarbligi nimada?

2-BOB. MODUL TIZIMIDA BUYUMNI LOYIHALASH

2.1. KOMBINATORIKA – DIZAYNDA SHAKLLANTIRISH USULLARI.

Kiyim loyihalashda kombinatorika usullarni ilk bor 1920 yillarda konstruktivistlar A.Ekster, A.Rodchenko, L.Popova, V.Stepanova tomonidan

qo'llangan. Tizimga oid tarkibiy taxlilni o'zlashtirib va abstrakt rangtasvirda "formal tajribalar" bilan shug'ullanib, konstruktivistlar bu usullarni kiyim ishlab chiqishda foydalanishgan. Kiyim loyihalashda ular bir necha shakllantirish usullarnini qo'llashgan:

oddiy geometrik shakllar to'plamidan standart elementlarni kombinatciyalash;

bazaviy shakl asosida har xil bezaklarni kombinatciyalash;


tayyor standart ob'ektlarini kombinasiyalash.

Keyinchalik shaklni hosil qilishning programmashtirilgan usullari sanoatga oid kolleksiyalarni loyihalashda faqat etakchi usul bo'lmasdangina grafik kompyuter dasturlarning asosida yotadi (1-rasm).



1-rasm. Kompyuter dasturlash asosida kombinatorika.

Kombinator usullariga quyidagilar kiradi: kombinatorika, transformasiya, kinetizm, razmersiz kiyim ishlab chiqish, yaxlit bo'lak matodan kiyim yaratish. Kombinatorika – dizaynda fazoviy, konstruktiv, funktsional, grafik tarkiblarni variantli o'zgarish qonuniyatlarini qidirish, tadbiq etish, foydalanishga va tipik elementlaridan dizayn ob'ektlarini loyihalash usullariga asoslangan kiyim shaklini hosil qilish tarzi (2-3-rasmlar). Soddaroq aytganda, kombinatorika – bu har xil tarzda shakl va uning elementlarini kombinasiyalash.



2-rasm. Konfiguratsiya va rang-tonli kombinatorika.



3-rasm. Dizaynda kombinatoriya usullari.

Kombinatorika – bu variantli izlanish, uni loyihalashda bir qator asosiy usullarga ajratish mumkin:

- to'qimachilik kompozitsiyalarini, rapportli gazlamalarni yoki trikotaj polotnosini ishlab chiqqanda elementlarni tekislikda kombinatsiyalash;
- yaxlit shakl hosil qilinganda tipik standart elementlarni (modul) kombinatsiyalash;
- muayyan shakl ichida (bir konstruktiv asos yoki bazaviy shakl) detallarni va proporsional bo'linishlarni kombinatsiyalash;
- tayyor komplektlarni tashkil etish, tayyor variantlarni kompyuterda qidirish.



4-rasm. Kombinatorikada joyini o'zgartirish, qo'shimcha guruhlash, aylanish, ritmlarni tashkil etish.

Kombinatorika ma'lum usullardan foydalanadi: joyini o'zgartirish, qo'shimcha guruhlash, aylanish, ritmlarni tashkil etish (4-rasm). Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manbaa sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitning turli elementlari, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet, teatr, kino, tomosha tadbirlari, etnik mavzular, me'morchilik, muhandislik inshootlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san'at asarlari, musiqa asboblari, er fakturasi, yulduzli osmon, origami o'yini, ekologiya, tarixiy, xalq va klassik kostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usuli va h.k. bo'lishi mumkin.

Transformasiya (lot. transformasio – o'zgarish) – kiyim shaklini boshqa turga aylantirish yoki o'zgartirish uchun kiyim loyihalashda ko'pincha foydalanadigan usul. Transformatsiya jarayoni dinamika, o'zgartirish xarakati bilan mavjud bo'ladi (5-rasm).

Transformasiya – bu buyum shakli va hajmini har xil usulda birlashtirish, joyini o'zgartirish, ayrim detallarni almashtirish hisobiga o'zgartirish (masalan, uzun ubkani kalta qilish, taxlama sumka va b.); bir detal shaklini o'zgartirish (masalan yoqaning uchi qaytariladi, uriladi, bog'lanadi va h.k.).



5-rasm. Kiyimda transformatsiya.

So'ngi yillarda dizayn stilistik o'zgarishlarga uchrab, bu stilistik o'zgarishlarni impulsleri esa faqat funksionallik tarkibidagina emas, balki formal-estetik izlanishlaridadir. Dizaynerlar ko'proq shakllantirish sohasida konstruktivizmga murojat etishadi. Bu yo'nalish *"hay-tach"* deb nomlanadi.

Kostyum kompozitsiyasida ifodali siymolarni barpo etishga assosiativ fikrlash imkon tug'diradi – buyum, abstrakt va psihik assosiasiyalarni, ob'ekt echimini grafik izlanishlarga aylantirish, ya'ni assotsiativ rasm solishdir.



6-rasm. *"Hay-tach"* yo'nalishi.



Takrorlash uchun savollar:

1. Kiyim loyixalashda kombinatorika usulini birinchi bo'lib kim qo'llagan?
2. Loyixalash usulida kombinatorikaga nimalar kiradi?
3. Loyixalashda kombinatorikani asosiy usullarini sanab o'ting?
4. Shakl saqlovchi elementlar nimani xisobiga o'xshaydi?
5. Kombinatorika usulini ketma-ket yaratish.

2.2. KOMBINATORIKANING ASOSIY USULLARI (O'ZGARTIRISH, GRUPPALASHTIRISH, RITMLARNI TASHKILLASHTIRISH)

Hozirgi sharoitda kiyim dizaynini o'qitishning asosiy vazifasi loyihalash uchun har xil usullaridan foydalanib, ijtimoiy va madaniy muammolari bilan bog'liq, oldiga muhim loyiha vazifalarini qo'yadigan va uni echadigan mutaxassis tayyorlash.

Postmodernizm estetikasi iste'molchining estetika ehtiyojlariga binoan paydo bo'lib, yani estetik va ekologik muammolari yangi siymolar, yangi shakllar, texnologik usullar va kiyim modellarida zamonaga yarasha yangi tamoyillarni talab qiladi (1-rasm).



1-rasm. Kostyumda postmodernizm.

Eski loyihalash prinsiplarini o'rniga "muhit" loyihalash prinsiplari keldi: inson ekologiyasini inobatga olib, loyihalash real madaniy-tarixiy kontekstga kiritish; abstrakt iste'molchiga emas, balki individual shaxsga in'om etish; dizayn

ob'ektining asosiy iste'molchisi bilan hammmualiflik etish; dizayner bergan sxemasi bilan passiv foydalanmasdan, dizayn maxsulotiga aktiv ijodiy munosabatda bo'lish; dizayner faoliyatining mohiyati, buyum muhitning ko'pgina ob'ektlarini yaratmasdan, insonning turmush tarzi senariysini taqdim etishdir.

Shu sababdan dizayn muhsulotlariga yangi talablar qo'yiladi: go'zallik, inson psixikasiga yaxshi ta'sir etishi, ijobiy hissalarni tug'dirishi, ijod etishga imkoniyat berishi lozim.

Kostyumni modellashda ayrim vazifa qo'yilsa, dizayn esa umumiy muammoni qo'yib, uni echishga urinib ko'radi. Bu muammolar moda tendensiyaning jihati bo'lmasdan, insonni jamiyatdagi faoliyatiga taaluqlidir. Agar kiyimni modellash yaxshi shakl hosil qilish, figuraga mos bo'lish, zamonaviy bo'lish maqsadi qo'yilsa, dizayn esa muayyan maqsadda erkinlik berib "shaklni buzadi" (dekonstruktsiya usuli), buyumni gavdada boshqa klassik evropa an'analariga oid bo'lmagan o'rnashishni sinab ko'radi.

Dizayn yangi yo'nalishlarni ishlab chiqadi, ularga asoslanib modada tendensiyalar rivojlanadi.



2-rasm. Uniseks uslubidagi kiyimlari.

XXI asr kostyum dizayni quyidagi masalalarni echadi deb taqazo etish mumkin: oddiy shaklni murakkabga transformatsiyalash; razmersiz kiyimni ishlab chiqish; tikilmagan kiyimni tavsiya etish; oddiy bichim asosida kiyim yaratish; har

xil assortimentlarning bir-biriga kirishishi va qo'shilish tendentciyasini rivojlantirish; oddiy vositalar yordamida kiyim ishlab chiqish; "uniseks" buyumlarni yaratish; komfortni taqdim etish uchun kiyimni transformatsiya etish; yangi materiallar, fakturalar va naqshlarni qidirish; yangi texnologik usullarini taqdim etish; ideal buyumni ishlab chiqish; noan'anaviy materiallardan bir marta foydalalanadigan kiyim loyihalash (2-rasm).

Natijada kostyum dizayni kiyimni komfortligini, tashqi muhit bilan uyg'un qo'shilishini, kiyimning yangi shakllarini yaratish muammolarini echishga urinadi. Kombinatorika, modul, dekonstruksiya va boshqa usullaridan foydalanib, dizayner kelajak kiyimni rivojlanish yo'llarini taqdim etadi.




3-rasm. Kostyum dizaynida dekonstruktivizm.

Dizaynerning fikrlashi ixtisos yo'nalishga oid rivojlansa va dizayner o'zi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lsa, loyihalash shundagina foydali natija beradi: masalani aniq ko'rish va ifodalash qobiliyati bo'lishi lozim; qisqa vaqt davomida ko'p g'oyalarni tez ishlab chiqishi lozim; ajoyib echimlarni topish; berilgan muammoga oid juda zo'r echimlarni tez o'ylab chiqish mahorati bo'lishi lozim.

Loyihalanayotgan masalani echish uchun dizaynerni ijodiy jarayon rejasi mavjud bo'lishi lozim: g'oyani paydo bo'lishi va masalani qo'yish; ma'lumotni yig'ish va to'plash, ijodiy manbani tanlash; kuchni konsentratsiyalash, intensiv ishlash, har xil evristik va loyihalash usullaridan foydalanish; tanffus etish, diqqatni chetga tortish va bir necha vaqt o'tgandan so'ng yana echimga qaytish,

yangi nuqtai nazar bilan uni baholash; fikrning ravshanlashuvi – yakuniy optimal echimni hosil qilish.



4-rasm. Dizaynda evristik usullari.

Nazariy va amaliy ish barcha loyihalash bosqichlarida umumiy loyihalash usulida tuzilishi mumkin: muammo situatsiyani anglash; loyihalashdan oldin tahlil etish; masalani echish uchun vositalar va prinsiplarni ta'riflash; formal siymoni tashkil etish; loyihani ishlab chiqish.



Takrorlash uchun savollar:

1. Transformasiya qaysi 2 ta usulga bo'linadi?
2. Butun material asosida bichilgan kiyim turini aytib bering?
3. Dekonstruksiya usuliga izoh bering.
4. Kiyim loyihalashni yana qanday usullarini bilasiz?

2.3. KINETIZM-KOMBINATORIKANING LOYIXALASH USULLARI. MATONING KINETIK NAQSHI.

Kinetizm (yunon. kinetikos – harakatga keltirmoq) kombinasiya qilish nazarda tutilgan loyihalash usuli, uning asosida ko'z ilg'aydigan shaklni harakatga keltiradigan g'oya olingan. Kinetizm usuli shaklda bezakda, naqshda va b. ko'z

ilg'aydigan dinamikani hosil qilish. Shaklning harakat g'oyasi V.Tatlin, K.Melnikov, A.Rodchenko, va b. mansub, 1920-1960 yy. bu g'oyani L.Moxoy-Nad, M.Dyushan, R.Soto, N.Shoffler, Vazarelli va b. rivojlantirishgan.

Kostyum dizaynida kinetizm usuli kiyimni transformatciyalaydigan detallar dinamikasida, aylanayotgan va harakat qilayotgan elementlarida qo'llanadi. Ko'zni aldaydigan grafik vositalar yordamida "op-art" uslubida modellar kollektciyasi ishlangan. Asosan illyuziya effekti to'qimachilik sohasida kuchli dinamikani yaratish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Shakl kinetizmi va Op-Art.

Razmersiz kiyimni ishlab chiqish – har xil qomatli odamlarga mos keladigan o'rta razmerli kiyimni ishlab chiqish uchun kombinasiyalangan loyihalash usulidir. Razmersiz kiyim turli hajmli trikotaj kiyimlarida mavjud. Bunday kiyim turini loyihalash va ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi, ya'ni ma'lum kombinasiya yordamida hayotning barcha hodislariga mos kostyum garderobini tashkil etish mumkin.



2-rasm. «Oversayz» stilidagi kiyimlar.

Shuni ham hisobga olish kerakki, buyumlar oddiy, hattoki shakli primitiv bo'lishi kerak, ulardan oddiy va murakkab komplektlarni tashkil etish mumkin. Bu erda “oddiydan murakkabkga” o'tish usuli. 1990 yilda amerikan dizaynerlar trikotajdan modali kiyimlarning o'zgaruvchan gardrobini taqdim etishdi. Taqdim etilgan komplektning ayrim qisimlari (“truba”) juda oddiy bo'lgan. Ushbu oddiy shakllar komplektning qismi sifatida bir-biri yoki boshqa kiyimlar bilan kombinasiyalanib kiyilishi mumkin.

Razmersiz kiyimning assortimenti har xil: qo'sh burmali toplar; har xil qo'sh burmali yubkalar; yopishgan siluetli, uzunligi minidan maksigacha yubkalar; har xil razmerli “xomutlar” yoqalar, lif, belbog'simon kiyish mumkin. Razmersiz kiyim g'oyasini yapon dizaynerlari ham taqdim etgan. Masalan, Issei Miyake barcha odamlarga mos, bo'yiga va kundalangiga gofreni qo'llab, kiyim kollektciyalarini taqdim etgan. Demak, kiyimning tanaga yopishib turish effektiga elastik trikotajdan tashqari, gofre, plisse, g'ijimlangan faktura, laykra va rezinka qo'shilgan mato, kuliska va drapirovka yordamida erishish mumkin.



3-rasm. Issei Miyake liboslar to'plamidan lavha.

Elastik materiallar rivojlanganligi bois “hammabop kiyim” loyihalash uchun imkoniyatlar ko’p. Imte’molchi esa komplekt yaratganda o’z ijodini ham qo’shadi. *Yaxlit mato bo’lagidan kiyim ishlab chiqish* – bichilmagan va tikilmagan kiyimni kombinatorika usulida yaratish. Bu usul qadimdan bo’lgan: ibtidoiy xalqlarda, qadimiy yunon va rimda, hind va hindularda va b. xalqlarda.




4-rasm. Xind bichilmagan kiyimi “Sari”.



5-rasm. Bichilmagan kiyim turi.

Tikilmagan kiyim usuli texnologiya va konstruktiv jihatdan juda qiziqarli va samarali. Har xil moslamalar (bog’lash, tugun, bantlar, furnituralar) yordamida

transformasiya o'zgarishi ro'y beradi. Masalan, Fransiya "Hermes" firmasi o'z "kare" ro'molari bilan dunyoga mashhur ko'rgazmalarda doimo o'z mahsuloti bilan foydalanish usullarini namoyon etadi. Masalan, ro'mol-karedan (90x90 sm) bo'yni va belida bog'lanadigan lif, xalqa yordamida lif-bikini, o'rab kiyiladigan yubka-sarong, bo'yni bezaklarni va h.k. barpo etish mumkin (6-rasm).



6-rasm. Hermes firmasining ro'mollari.

Matoda kesim qilib, har xil kiyim turlarini taqdim etish mumkin.

"Origami" usulni qo'llab kompanon-materiallar, ikkiyuzli gazlamalar, turli matolar, har xil bezak, moslamalar, kesimlar, qo'shimchalar va turli geometrik shaklda mato bo'laklarini qo'llab kostyum qismlarining turlicha variantlarini taqdim etish mumkin (7-rasm).



7-rasm. "Origami" usuli.



Takrorlash uchun savollar:

1. Kombinatorika usulining turlari.
2. Joyini o'zgartirish usulini ta'riflab bering.

3. Qo'shimcha usulini ta'riflab bering.
4. Transformatciya usulini usulini ta'riflab bering.
5. Kinetizm usulini ta'riflab bering.
6. Razmersiz kiyimini ishlab chiqish usulini ta'riflab bering.
7. Yaxlit mato bo'lagidan kiyim ishlab chiqish usulini ta'riflab bering.

2.4. GRAFIK ILLUZIYALARNI DEKORDA YOKI MATOLAR NAQSHIDA QO'LLASH.

Dizayner liboslarda statik va dinamik shakllaridan foydalanib, ornamentli kompozitsiyani jamiyat va tabiat qonunlarini qo'llab shakllantiradi. Kompozitsiyadagi statika va dinamika tabiatdagi statika va dinamikadan katta farq qiladi. Dinamik kompozitsiya o'zida shaklning tarangligi, harakati, real va potensial echimning mavjudligi haqida ma'lumot beruvchi asosiy mavzuning, ritmning, shaklning ifodali siymosini mujassam etadi. Statik kompozitsiya xotirjamlik, turg'un siymoli g'oyaga ega. Statik va dinamik xarakteridagi elementlarning turli birikmalariga asosan, kiyimning mo'ljaliga mos kompozitsiyada turli tuman ornamentlarni yaratish mumkin.



1-rasm. Optik illyuziyali naqshlar.

Odam qomatini uyg'unlashtirishning usullaridan biri ko'z aldanishi, ya'ni illyuziyani qo'llash hisoblanadi. Optik ko'z aldanishlar, odamni ko'rishga oid idrok etish hodisasi arxitektura va tasviriy san'atda bir necha asrlardan beri

qo'llaniladi. Biroq ko'p hollarda ko'z aldanishlarning boy imkoniyatlari kiyimni loyihalashda qo'llanilmaydi. Ehtimol, buning sababi taniqli optik ko'z aldanishlarni moda sohasiga to'g'ridan to'g'ri o'tkazish imkoni yo'qligi, bunda ko'z aldanishi kiyimga ilova qilinganda kutilmagan natijalarni berish mumkinligi bilan bog'liq bo'lsa kerak.



2-rasm. Illuziya libosda qo'llanilishi

Ko'z aldanishi berilgan predmetni idrok etishda boshqa turlari bilan mos tushmaydigan bevosita ko'rish xotirasiga va u haqidagi bilimlarning umumiy majmuiga aytiladi. Ko'z aldanishi turli odamlarning tasavvurida predmetning ranglarini, o'lcham va shakllarini o'zgargan holda, ularni muayyan sharoitda idrok etishda taassurotni qonuniy paydo bo'lishidir (1-rasm). Aslida, bizning tasavvur etishimiz sub'ektiv omillarga, idrok etishning psixologik sharoitlariga yoki fiziologik apparatning tuzilishiga bog'liq.

Optik tasavvur etish ko'rish qobiliyatiga yoki ko'rinayotgan ob'ektning idrok etish usuliga qonuniy asoslangan. Illyuziya, ya'ni ko'z aldanishi hammaga ham bir xil ta'sir etmaydi: ayrimlarga juda aktiv, boshqalarga zaif holda ta'sir etadi. Illyuziya bir necha sabablarga ko'ra yuzaga keladi:

fizikaviy sabablar, nurlarning yo'nalishini yoki aksini o'zgartirish tufayli, predmetlarni boshqa yo'nalishda ko'rish;

fiziologik sabablar, odam ko'zining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq;

psixologik sabablari, Bularga e'tiborni yo'nalishi, istiqbolni tushunishi, tajribalarni ta'siri va odam qomatini yaxlit mazmunda qabul qilishi kiradi;

rangga bog'liq bo'lgan illyuziyalar, faqatgina shaklni emas, balki rang taassurotini o'zgartirib idrok etishga olib keladi.

Qoida bo'yicha bu illyuziyalar rangga ko'zning charchash ta'siri hisobiga qo'llaniladi. Kostyumda rangni, burchaklarni yo'nalishlari, chiziqlarning, shakllarning o'lchamlarini idrok etish bilan bog'liq illyuziya turlari ko'p uchraydi. Kiyimlarni loyihalashda illyuziyalar qonunini qo'llab, odam qomatini o'zgartirish mumkin: kattalashtirish yoki kichraytirish, kengaytirish yoki toraytirish, ayrim nuqsonlarni yashirish. Kiyimni yaratishda ko'z aldanishini qo'llash ilgari zamonda ham qo'llanilgan. Kostyum tarixini o'rganar ekanmiz, ko'z aldanishlarini yaratilishi bo'yicha bir necha misollar keltirishimiz mumkin. Masalan, juda keng va serhasham yubkalar belni ingichka ko'rinishiga, bel chizig'ini yuqorida bo'lishi, oyoqlarni uzun, "freza" yoqasi esa boshni kichkina va ixcham ko'rsatishga yordam bergan. XX asrdan boshlab ko'z aldanishini faqatgina odam qomatini to'g'rilash uchun emas, balki estetik vazifani echimi uchun qo'llanilgan. Optik illyuziyalar 1960 yilda mashhur bo'lgan op-art san'at yo'nalishining asosi bo'lgan. Libos dizaynerlari op-art rasmlarini kostyumda qo'llashgan.

Op-art – bu kontrast munosabatlarga asoslangan, rasm va ornament hisobiga fazoni o'zgartirish san'atidir. Bu termin birinchi marta 1964 yil oktyabrda paydo bo'lgan. Bu san'at yo'nalishi Bridjit Reyli va Viktor Vazareli tomonidan yaratilgan bo'lib, geometrik shakl va kontrast grafikalar yordamida harakat va hajm illyuziyalarini tekisliklarda tasvirlashgan. Uning yangiligi predmetsiz tasvirli san'at turi bo'lganligidadir. Uchinchi o'lchamli illyuziya optik va yorug'lik effekti yordamida yaratilgan. 60 yillarda op-art yo'nalishida mashhur model'ernlardan Kurrej, Kapuchchi va Kardenlar "shaxmat" va "zebra" chiziqlarini matoda qo'llab yangi modellarini taklif etganlar.



3-rasm. Op-art uslubi.

XX asrning oxirida modaga retron kirib kelishi, optik illyuziyalarni yana liboslarda qo'llash imkonini berdi. Masalan, yirik chiziqlar kichrayib, xuddi fazoda yo'qolib borayotgandek taassurot uyg'otadi. Qomatni nuqsonli joyiga e'tiborni qaratmaslik uchun katta hajmdagi rasmlarni shu joyda joylashtirmaslik kerak. Mayda naqshlarni kattalashgan tomon yo'naltirilsa, e'tibor ham xuddi shu tomonga qaratiladi.


Vertikal va gorizontal chiziqlardan tashkil topgan rasmlarni qo'llashda shaklni idrok etish, bu chiziqlarning kengligi va ritmik qaytarilishiga bog'liq holda o'zgaradi. Vertikal chiziqlarni bir xil masofada joylashishi odam qomatini ozg'in va uzun, gorizontal chiziqlar esa kalta va keng qilib ko'rsatadi.



4-rasm. Chiziqlarning qomatga ta'siri.

Ritmning, chiziqlar (nuqta, dog' yoki rasm)ning zichligi va kengligini o'zgarishi hisobiga chuqurlik hosil bo'ladi, uning yordamida proporsional

nisbatlarni o'zgartirish mumkin. Masalan, gorizontal chiziqlarni kengligini pastdan yuqoriga kattalashtirish odam bo'yini uzun qilib ko'rsatadi. Diagonal chiziqlarni yuqoriga qarama-qarshi burchak ostida joylashishi qomatni yuqori qismini kichikroq past qismini esa kengroq ko'rsatadi yoki buning aksi ham bo'lishi mumkin. Libosdagi bunday illyuziya bo'ksani torroq elkani kengroq ko'rsatadi.



5-rasm. Bo'shliqni to'ldirish illuziyasi

Xulosa qilib aytganda, optik illyuziyalar notipik qomatdagi nuqsonlarni e'tibordan holi qilib, liboslarni yaratishda juda faol qo'llanilishi mumkin. Kostyum dizaynida illyuziyalarni to'g'ri qo'llashni bilish loyihalash vazifalarini to'g'ri echimda bajarishga yordam beradi.



Takrorlash uchun savollar:

1. Liboslarda statik va dinamik shakllarga misollar keltiring.
2. Odam qomatini uyg'unlashtirishning usullari sanab oting.
3. Op-art uslubi qanday uslub?
4. Vertikal va gorizontal chiziqli illuziya haqida gapiring.

2.5. KIYIMNI MODELLASHTIRISH JARAYONIDA MODULLI LOYIHALASH USULINI QO‘LLASH

Buyumning yaxlitligi va uning qismlarini uyg‘unligini ta’minlovchi vosita modul hisoblanadi. Modul (lotinchada *modulus* – o‘lchov) – bu yaxlit shaklda, takrorlanib, qoldiqsiz joylanadigan, asos qilib olingan o‘lchov me’yori. Dizaynda modul inshoot yoki mashinani ayrim predmeti, shuningdek, ularning detallari, qirqimlari va elementlarini, tanlangan modul uchun qoldiqsiz bo‘linadigan o‘lcham hisobini asos qilib olinadigan qiymatdir. Qadimda odam tanasining ayrim qismlari me’yor o‘lchovi sifatida ishlatilgan: *dyuym* – katta barmoq bo‘g‘imining uzunligi; *pyad* – ikki tomonga surilgan katta va ko‘rsatkich barmoqlar orasidagi masofa; *fut* – odam oyoq kaftining o‘rtacha uzunligi. Zamonaviy me’morchilik moduli – 10 sm; quruvchilikda – 30 yoki 40 sm; asbobsozlikda – 5 sm; interer jihozlarida – 5 va 15 sm ga mos keladi.

Modul odamni tana o‘lchamlari va kiyimning optimal o‘lchamlari asosida tanlanadi. Odatda, modul oddiy geometrik shakllardan iborat bo‘lib, hajmli kiyimlarni yaratishda keng qo‘llaniladi. Buyumlarini ishlab chiqishda modulli loyihalash usuli – standartizatsiya sohasida eng samarali faoliyat. Bu usul buyumning tarkibiy elementlarini unifikatsiyalashga imkon yaratadi.

Unifikasiyaning asosiy prinsipi – unifikatsiyalashgan elementlardan (modullar) minimal holda foydalanib, dizayn buyumlarini xilma-hilini hosil qilish. Modulli loyihalash konstruktiv, texnologik va funksional yakunlikni taqozo etadi. Modul boshqa funksional mo‘ljaliga qarab, buyumning tarkibiy qismi yoki tugallangan buyum ham bo‘lishi mumkin. Bitta modulli konstruktiv detal ko‘pincha turli xil buyumlarda ham qo‘llanilishi mumkin. Elementlarni o‘zaro almashtirish, konstruksiyani universalligi ishlab chiqarishni yuqori tejamkorligiga olib keladi, alohida agregatlar almashtirilib, ma’nan eskirgan buyumning xizmat qilish muddatini uzaytirib, zamonaviy talqinda namoyish etadi.



1-rasm. Modulli loyihalash usulini qo'llab yaratilgan libos namunalari.

Modulli loyihalash usulini turli hil matolarda hamda turli assortimentlarda qo'llash mumkin. Ayniqsa loyihalashning bu usuli charm, mo'yna materiallarida keng qo'llaniladi (1-rasm). Bu materiallarning o'ziga xosligi, hajmining chegaralanganligi liboslarni yaratishda ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Shuningdek, eksklyuziv, shaxsiy buyurtma asosida tikiladigan kiyimlarda ham modulli loyihalash usulini keng qo'llash mumkin.

Bugungi kunda zamonaviy modaga hamda, xududimizning iqlim sharoitiga asosan aholi oddiy, qulay, engil, chiroyli va ixcham kiyinishni xush ko'radi. Shuning uchun ham O'zbekiston bozorlarida aynan trikotaj polotnosidan turli hil kiyimlar ommabopdir. Trikotaj matosining o'ziga xosligi, unga beriladigan texnologik ishlovlar to'qimachilik matolaridan farq qiladi. Trikotajdan kiyim ishlab chiqarishning asosiy jarayoni –dizaynining kompozitsiyasidir.


Modellashtirish jarayonida dizayner buyum turiga ta'sir etadigan omillarni aniqlab olishi kerak. Buning uchun u odam-buyum-atrof-muhit sistemasini ko'rib chiqishi kerak. Har doim inson diqqat markazida bo'ladi. Dizayner uning ijtimoiy

mavqeini, antropometrik, morfologik belgilarini, xarakatlanish xarakterini, psixofiziologik funksiyalarni inobatga olishi kerak. Bu xususiyatlar insonning ergonomik hususiyatlari hisoblanadi. Turli xil mo'ljaldagi trikotaj buyumlariga qo'yiladigan talablar ergonomik talablar deb ataladi.



2-rasm. Modulli loyihalashda tavsiya etiladigan matolar.

Trikotaj polotnosidan kiyimni modellashtirishda geografik va sintetik muhit inobatga olish kerak. Geografik muhit bu odamning iqlimiy va fasliy hususiyatlariga ta'sir etsa, sintetik muhit shaxsning shakllanishiga qarab jamiyatga, kiyimning uslubi va urfiga hamda trikotaj polotnosidan yaratilgan kiyimning ijtimoiy mohiyatiga ta'sir etadi. Zamonaviy kiyimlarni yaratishda trikotaj polotnosining andozalararo chiqitlaridan unumli foydalanish mumkin. Biroq, korxona sharoitida modulli loyihalash usulidan foydalanish ko'proq qo'l mehnatini va vaqt sarfini talab etadi. Bu esa albatta kiyimning tannarxini oshishiga olib kelishi mumkin. Aslida esa, ko'p vaqtni sarf etadigan mahsulotni kam miqdorda shaxsiy buyurtma asosida yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dizayner bunday mahsulotlar uchun modulli loyihalash usulida gazlama fakturasini hosil qilish, murakkab xajmiy-fazoviy shaklni, uning yuzasini hosil qilishda kombinatorik izlanishlardan foydalanadi, shuningdek, kostyumda turli fizik-mexanik xususiyatga, geometrik shakllarga ega bo'lgan gazlama qoldiqlarini qo'llash shakl hosil qilishning kombinatorik imkoniyatlarini oshiradi (2-rasm).



3-rasm. Modullarni loyihalash sxemalari.

Shuningdek, kiyimda bir necha rang, faktura va materialning teksturasini qo'llash bezak, ya'ni dekor vazifasini ham bajaradi. Qadimdan material ijodning o'ziga hosligini aniqlab bergan. Yangi materiallarni yaratilishi yangi badiiy shakllarni, konstruksiya va texnologiyalarni o'rganishga olib keladi. Dunyoning etakchi dizaynerlari o'zlarini liboslar to'plamlarida shakl hosil qilish hamda yangi material teksturasini yaratish maqsadida ushbu loyihalash usullaridan foydalanmoqdalar. Kostyumda did bilan shakl hosil qilish uchun dizayner materialning xarakterini bilishi, uning vazifasini tushunishi, kompozitsion tuzilmasi imkoniyatlarini va plastikligini sezishi zarurdir. Arxitektonika bo'yicha ish olib borilganda, kostyumda to'qimachilik materiallarini dekorativ bezash va plastiklik bilan boyitish uchun zarur bo'lgan keyingi bosqichdagi ishlarda, material sezishni bir maromda rivojlanishiga va qo'l ishidagi noziklik qobiliyatiga yo'naltirilgan trening sifatida qarash lozim (3-rasm). Shakl hosil qilish fakturani va turli materiallar (mato, trikotaj, tabiiy va sun'iy charm va b.q.)ni deformatsiyalanish xususiyatlari, ularni cho'zilish, buklanish, siqilish va deformatsiyani boshqa turlari bo'yicha ip va tolalarni geometrik (qalinlik, hajmdorlik, silliq, tukli va b.q.) xususiyatlari hisobiga amalga oshiriladi. Kostyumda shakl harakatini va hajmli ko'z aldanishini hosil qilish uchun soya-yorug'lik effektlari, shuningdek, shaffoflik, faktura, yaltiratish xususiyatlari qo'llaniladi.

Kostyumda trikotaj to'qilishiga bog'lanadigan relief yuzalarni hosil qilishda drapirovkalar, buflar, taxlamalar turli hil yo'nalishda bukish, kesishga asoslanadi. Releflar ritmik va metrik, oddiy va murakkab qatorlar, bir tomonlama va qarama-qarshi tomonga yo'naltirilgan birikmalarda quriladi. Materialga maqsadli yo'naltirilgan vositalarga an'anaviy, masalan tikuv buyumlariga tipaviy ishlov berish, shuningdek, ularni fizik-mexanik xususiyatlari (qattqlik, egiluvchanlik, drapirovkalanishi, elastiklik va x.k)ni o'zgartiruvchi usullar, shu bilan birga optik xususiyatlar (rang, shaffoflik, faktura, yaltiroqlik) va tashqi topologik tavsifi (kompozitsion- ma'noli, ilg'ashda teng ahamiyatli, bir turdagi fakturali uyg'unlik) kiradi.

Zamonaviy liboslarni yaratishda modulli loyihalash usulini qo'llash bugungi kunda to'qima va noto'qima, charm va mo'yna material qoldiqlaridan unumli foydalanish hamda buyumga o'zgacha estetik ko'rinishga ega eksklyuziv namunalarni yaratish imkonini yaratadi.



Takrorlash uchun savollar:

1. Modul tushunchasiga izoh bering.
2. Kostyumda shakl harakatini va hajmli ko'z aldanishini hosil qilish uchun qaysi xususiyatlar qo'llaniladi?
3. Modellastirish jarayonida dizayner nimalarga etibor qaratishi kerak?
4. Zamonaviy liboslarni yaratishda modulli loyihalash usulini qo'llash qanday imkoniyatlarni yaratadi?

2.6. QUROQ TEXNIKASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISH.

Quroq – mayda yoki qiyqim mato bo'laklarini bir-biriga ulab ro'zg'or uchun kerak bo'ladigan buyumlar, bezaklar yaratish texnikasi bo'lib, qadimdan jahondagi turli xalqlar orasida keng tarqalgan. Yevropada ushbu texnika

“Пэчворк”(ingliz tilida “patchwork” - mato bo'laklaridan yaratilgan buyum) nomi bilan mashhur. Amerikada bu texnikani “Quilting”(ingliz tilida “quilt” – qavilgan ko'rpa) deb atashadi. Yillar davomida hunarmandchilikning bu turi san'at darajasiga ko'tarildi. Bugungi kunda quroq texnikasini intery'erda, uy ro'zg'or buyumlarida, liboslarda, turli san'at asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, quroq texnikasida yaratilgan divan qoplamlari, pardalar, dasturhonlar, gilamlar, choyshablar, tasviriy san'at asarlari intery'er uchun dekor sifatida qo'llanilmoqda. Ma'lum bo'lishicha, quroq texnikasida hech qanday qiyinchilik yo'q, har qanday hunarmandchilik turi ham odamdan iste'dod, sabr va orastalikni talab qiladi. Quroq texnikasida buyumlar yaratishda har qanday mato turlaridan foydalanish mumkin, albatta bu ijodkorning ilhomlanish manbaiga bo'g'liqdir. Quroq texnikasini bajarish mobaynida har hil turdagi va ranglardagi mato bo'laklari birlashtirilishi natijasida yaxlit, umuman boshqa bir murakkab ko'rinishdagi rasm hosil bo'lgan bir buyum paydo bo'ladi.

O'zbekistonda quroq texnikasining kelib chiqish tarixi. O'zbek xalqi qadimdan hunarmandchilik bilan kun kechirgan. Shu sababli xalqimiz hunarmand kishilarga alohida hurmat-e'tibor bilan qaraydi. O'zbekistonda hunarmandchilikning juda ko'p turlari mavjud. Masalan, kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, tosh-taroshlik, yog'och o'ymakorlik, kashtado'zlik, quroqchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, zardo'zlik, tunukaso'zlik va boshqalar. Quroqchilik, yani quroq usulida milliy buyumlar, kiyimlar tikish san'ati azaldan bizga momolarimiz tomonidan avloddan-avlodga meros bo'lib kelmoqda. Avvalo, quroq so'zi “qurg'oq” yani qurg'oqchilik so'zidan kelib chiqqan bo'lib, quroq tikish texnikasini qurg'oqchilik bo'lganidan keyingi yer yorilishi fakturasiga o'xshashligidan kelib chiqqan. O'zbekistonda quroqchilik qadimdan ma'lum bo'lib, o'ziga xos xususiyat va an'analarga boy. Bu san'at qadimiy tarixga ega, xususan, o'rta asrlarda Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” devonida hamda Husayn Voiz Koshifiy asarlarida muraqqa'(quroq to'n, janda) avliyo yoki darveshlar kiyimi sifatida eslatilgan. O'rta asr tasavvuf namoyandalari ko'pincha muraqqa yoki unga yaqin kiyimlarda tasvirlaganlar. Misol sifatida Kamoliddin

Xusayn Guzurgihiyning “Majolis ul-ushshoq” asariga ishlangan miniatyuralarni keltirish mumkin. Quroq yoki muraqqa kiyim egasini balo-qazolardan saqlaydi, degan tushuncha xalq orasida ommalashgan. O‘zbekistonda har bir viloyatning o‘ziga xos quroq tikish usullari mavjud. Jumladan, qatlama quroq turna, ko‘z, oq qush, tegirmon, quduq kabi tikish usullaridan foyadalanadilar va ular o‘ziga xos ramziy manosiga egadir. Masalan, qadimda o‘zbek xalqi yosh kelin-kuyovlarning yostiq jildlarini quroq texnikasida tikishgan. Buning ma‘nosi yosh kelin-kuyovning hayoti bir-biriga quroq kabi ulanib, mustahkam rishtaga aylansin, ahil-inoq oila bo‘lsin deganidir.

Samarqand va buxoroda quroq texnikasi. Samarqand va Buxoroda quroq texnikasi ko‘proq bolalar liboslarida qo‘llanilgan. Buning o‘ziga xos ma‘nosi bo‘lib, yosh bolalarni yomon ko‘zlardan asraydi deb hisoblashgan. Kelinlar sarposida quroq texnikasidan tayyorlangan buyumlar bo‘lishi shart bo‘lgan. Ularga quroq texnikasidagi buyumlarni buvilari va momolari tikishgan. Bir tomondan ularning bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tsa, ikkinchi tomondan kelin sarposining asosiy buyumlari tayyor bo‘lgan. Kelin sarposiga quroq texnikasida tikilgan buyum berilishi azaliy udumlardan sanalib, bu an‘ana hanuzgacha saqlanib kelinmoqda. Buning ramziy ma‘nosi kelin-kuyov ham shu quroq kabi o‘zidan ko‘paysin deganidir. Nikoh marosimlarida kelin va kuyov quroq texnikasida tikilgan ko‘rpacha ustida va quroq texnikasida tikilgan dasturxon yonida o‘tirishgan. Chimildiqda 40 kun chilla vaqtida quroq texnikasida tikilgan dasturxon tutilgan. Dasturxon o‘lchami 80x80 bo‘lib, to‘rtburchak shaklda bo‘lgan. Kelinlar sepiga 2ta quroq yostiq, 1ta quroq ko‘rpacha va 1ta quroq texnikasida tikilgan dasturxon bo‘lgan. Quroq yostiqlar kelinning yangi uyidagi taxlamdagi ko‘rpa va ko‘rpachalarning ustiga bezak sifatida yasatib qo‘yilgan. Yangi kelin-kuyovlarning xonasiga quroq texnikasidagi buyumlarni qo‘yilishining yana bir sababi, kelgan mehmonlarning har xil yahshi-yomon nazarlari yosh kelin-kuyovga emas, aynan shu quroq texnikasidagi buyumlarga tushsin deganidir. Chindan ham quroq texnikasidagi buyumlar o‘zining jimjimador va rang-barangligi bilan inson diqqatini o‘ziga jalb etadi.

Samarqand va Buxoroda quroq texnikasining shakllari ko'proq to'rtburchak va uchburchak shakllarda bo'lib, asosan oq ranglardagi bo'lakchalarni boshqa hil rangdagi bo'lakchalar bilan uyg'unlashtirilgan holda ishlatishgan. To'rtburchak shakllarni romb shaklida qatorlashtirib tikish usuli – "Olmaqator" deb nom olgan. Shuningdek, quroq texnikasining taxlamali uslubidan ham keng foydalanishgan. Bu usul- "Turna" deb nomlangan. Ushbu texnikada tikilgan uy ro'zg'or buyumlari yani ushlagichlar, choynak yopgichlar, ko'rpacha va hokazolar, shular jumlasidandir (1-rasm).



1-rasm. Quroq texnikasida tikilgan yostiq jildi (Samarqand).

Xorazm quroq uslubi. Xorazm viloyatida quroq texnikasidan tikilgan buyumlarni asosan qariya ayollar, yani buvilar qiz nabiralarining kelinlik sepiga atab tikishgan. Ular quroq tikish uchun asosan oq va qora ranglardagi matolardan foydalanishgan. Buning ma'nosi hayotning o'n besh kuni qorong'u bo'lsa, o'n besh kuni yorug' deganidir. Quroq tikish uchun yahlit matoni kesishdan oldin irim qilib bir chetidan kertik berishgan. Boshqa viloyotlarda bo'lgani kabi, Xorazm viloyatida ham kelinlar sarposida quroq texnikasidan tikilgan buyumlar bo'lishi shart bo'lgan. Bular, yostiq jildlari, ko'rpa avrasi va chimildiq ustiga ilish uchun choyshab. Yostiq jildlari choklari boshga botganligi va noqulaylik tug'dirganligi uchun yaltiroq matolardan foydalanilmagan (2-rasm).



2-rasm. Xorazm quroq texnikasida tikilgan yosti qildi.

Surxondaryo va qashqadaryo quroq uslubi. Qadimdan o‘zbek xalqi hunarmandchilik bilan kun kechirgan. Shuning uchun xalqimiz hunarmand kishilarga alohida hurmat-e’tibor bilan qaraydi. Avvalo, hunarmandchilik so‘zining asl ma’nosini izohlaydigan bo‘lsak, har xil mehnat qurollari yordamida mavjud xom-ashyodan chiroyli buyumlar ishlab chiqariladigan hunarlarning umumiy nomi hunarmandchilik deb yuritiladi. Bizlarga momolarimiz tomonidan avloddan avlodga meros bo‘lib kelayotgan milliy hunarmandchiligimizning sir-asrorlari saqlanib, o‘rganilib kelinmoqda. Ana shunday hunarlardan biri “Quroq” usulida milliy kiyimlar, buyumlar tikish san’atidir (3-rasm).



3-rasm. Surxon quroq texnikasida tikilgan yosti qildi.

Surxondaryo va Qashqadaryo quroqlari qadimda, asosan bolalar kiyimlarida qo'llanilgan. Keyinchalik bu texnika rivojlanib bordi va hunarmanchilikning ajoyib yo'nalishlaridan biriga aylandi. Surxon quroqlarining o'ziga xosligi shundaki, ularda yorqin ranglar ishlatilganligi va kashtalarning tikilganligidadir. Surxondaryo va Qashqadaryo quroqlari ham kashtalar kabi shakllarga ega bo'lib, ko'proq dumoloq va uchburchak shakllardan foydalanilgan. Asosan qizil, yashil, sariq va ko'k ranglardan tikilgan.

Farg'ona quroq uslubi. Quroqchilik Farg'ona viloyatining So'x tumanida xalq turmush tarzining ajralmas qismi xisoblanadi. Chunki quroqdan tikilgan buyumlar inson tug'ilganidan to hayotining so'nggi manziligacha bo'lgan davrda barcha an'anaviy milliy marosimlarda ishlatiladi. Masalan, go'dak dunyoga kelganining oltinchi kunida serfarzand nuroniy otaxon va onaxonlarning uylaridan 15 tadan ortiq mato qiyqimlari yig'ib olinib, "Farzandimiz ham shularga o'xshab uvali-juvali bo'lsin, uzoq umr ko'rsin", deya niyat qilib, ushbu parchalardan tikib qavilgan to'n chaqaloqqa chillasi chiqquncha kiydiriladi.

Nikoh marosimlarida esa ikki yosh baxtli yashashlari ularga ko'z tegmasligi, yomon ko'zdan saqlashi uchun hamda serfarzand bo'lishlarini tilab go'shanganing ikki tomoniga "Qatlama" quroq, kelin-kuyov uyining oldiga "Poyandoz quroq" to'shaladi. Shuningdek, kelin-kuyov oldiga "quroq dasturxon" ham solinib, ikki yoshning noni va nasibasi butun bo'lishiga tilak bildiriladi. Kelin-kuyovlarning ko'rpa yostiqlari jildlariga rang-barang quroqning qo'llanilishiga sabab, kelgusida ularning o'g'il-qiz farzandlari aralash tug'ilsin, degan ramziy ma'no yotadi. Quroqlarning ramziy ma'noda oq-qora, qizil-ko'k va boshqa ranglar bilan qorishig'i yoshlar bir-birlari bilan chatishib ketishi totuv yashashlariga ishoradir. Quroqdan, shuningdek, dafn marosimlarida foydalanib, "Balish quroq" tikiladi.

Jizzah quroq uslubi. Jizzahda "Turna", "Ko'z", "Ulama", "Qatlama", "Tirna", "Quduq", "Shaxmat" kabi quroq texnikasida beshik uchun asboblari, poyandoz, quroq chimildiq, quroq yostiq kabilar tikiladi. Beshik uchun

tikilayotgan quroq buyumlarining asl ma'nosi farzandlar sog'-salomat bo'lib, yani har bir oilaga qiz yoki o'g'il farzandlar nasib etsin va ularga ko'z tegmasin, deya niyat qilinadi. Nikoh to'ylarida, kelinga bir dona poyandoz, quroq chimildiq, bir dona quroq ko'rpa, 10 dona quroq yostiq, quroq bolish beriladi. Yana bir an'anaviy udumga ko'ra, kuyovning onasi niyat qilib 100 dan ortiq mato qiyqimlaridan to'shak tikadi. To'shakning bir chekkasiga tumorcha va to'shakning boshqa burchagiga "Qo'yning oshig'i" maxfiy ravishda tikiladi. Maqsad, ikki yoshning baxti mangu bo'lib, ular butun umr "oshiq-moshiq" bo'lishlari, baxtlari bir umrlik butun bo'lishi nazarda tutiladi. Sunnat to'ylarida esa, to'y bolalarga quroqdan bir juft yostiq, to'shak hamda yasatilayotgan toy uchun xurjun, bo'yintumorlar tikiladi.

Xulosa qilib aytganda quroq texnikasi xozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, bu texnikadan foydalanib betaror kompozisiyalar, noyob liboslar yaratish mumkin.



Takrorlash uchun savollar:

1. Quroq texnikasi xaqida tushuncha bering.
2. O'zbekistonda quroq texnikasining kelib chiqish tarixini o'ziga hosligi nimada?
3. Quroq texnikasi xozirgi kunda dolzarbligi qanday?
4. Quroqdan bajarilgan naqsh kompozisiyalari qanday manolarni o'zida mujassam etadi?

2.7. "QUROQ" TEXNIKASIDAN FOYDALANIB KOSTYUMLARNI LOYIXALASH.

Bugungi kunda moda olamida quroq texnikasining turli usullaridan keng foydalanilmoqda va yanada yangidan yangi turlari amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Dunyoning ko'plab dizaynerlari bu texnika asosida bejirim kolleksiyalarni yaratmoqdalar. Masalan, Fendi brendining dizayneri Karl Lagerfeld quroq

texnikasini qo'llagan holda ajoyib va chiroyli bo'lgan modellarni yaratgan. U turli hil rang va uzunlikdagi mo'ynalardan foydalandi (1-rasm).



1-rasm. Quroq texnikasida mo'ynali ustki kiyimlar to'plamlari.

Shuningdek, Sergey Grinko, Jean Paul Gaultier, Valentin Yudashkin kabi taniqli dizaynerlar ham o'z ishlarida quroq texnikasidan foydalangan holda ko'rkam liboslar to'plamlarini yaratishgan (2-rasm).



2-rasm. Quroq texnikasidagi charm va mo'ynali to'plamlar.

Pradaning kolleksiyasida ham quroq texnikasidan foydalanib turli matolar va naqshli bo'laklardan iborat liboslar va ustki kiyimlar yaratilgan (3-rasm).



3-rasm. Prada brendining quroq texnikasidan foydalanilgan to'plami.



4-rasm. Quroqni qo'llab yaratilgan liboslar.

Moschino brendining dizaynerlari quroq texnikasini oddiygina to'rtburchaklar usulini juda ham bejirim ko'rinishda liboslarda qo'lladilar. U jinsi va tilla rangdagi matolardan foydalanib betakror to'plam loyihalagan (5-rasm).



5-rasm. Moschino.

O'zbek moda olamida ham taniqli va yosh dizaynerlar tomonidan quroq texnikasidan foydalanib bejirim liboslar kolleksiyalari yaratilmoqda. Masalan, mashhur o'zbek dizaynerlaridan biri bo'lgan Saodat Muratxadjaeva o'z ishlarida quroq texnikasidan keng foydalanadi. U quroq texnikasining kresh usulida, milliy matolar uyg'unligida ayollar, erkaklar va bolalar liboslarini yaratgan (6-rasm).



6-rasm. Saodat Muratxadjaevaning 2009-yildagi liboslar to'plami.

Yana bir taniqli o'zbek brendi hisoblangan KANISHKAning kolleksiyalarida ham quroq texnikasidan keng foydalaniladi. U turli-tuman jun va

charm matolardan foydalanib quroq texnikasida yangi fakturalarni hosil qilgan holda ustki kiyimlar va boshqa turdagi liboslarni yaratadi.



7--rasm. Kanishka brendining liboslari.

Quroq texnikasini noyob va bejirim ko'rinishda yaratish maqsadida uni tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirish mumkin. Go'zal ijtimoiy yo'naltirilgan buyumlar yangi turmush tarzini o'rgatishga imkon beradi, insonning ruhiy talablarini qondiradi, moddiy vositalarni tejamlash rezerviga aylanib, mahsulotni mukammallik darajasini oshiradi.

Amaliy hunarmandchilikning o'ziga xos bir yo'nalishlaridan biri bo'lgan quroq texnikasi - tarixda matolar tanqisligidan kelib chiqqan bo'lsa-da, yillar mobaynida rivojlanib bordi. Bugungi kunda quroq texnikasining juda ham ko'plab turlarini uchratishimiz mumkin. Ular malakali dizaynerlar va ko'ngilli quroq tikuvchilar tomonidan yaratilmoqda. Zamonaviy moda olamida ham quroq texnikasi aktual mavzulardan biridir.


Ijodiy manbani izlanish jarayonida quroq texnikasiga o'xshash akril va moybo'yoqlarida ishlangan tasviriy san'at asarlaridan, zamonaviy moda tendensiyalaridagi yorqin ranglar koloritidan va siluetlaridan foydalaniladi.

Quroq texnikasini tikishda adras matolaridan foydalanish mumkin chunki, ulardagi rang barang naqshlar tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashib ajoyib quroq uslubini yaratadi. Quroq texnikasining ornamentlari uchburchak, to'rtburchak, shakllarda va turli o'simliklar va gullar shakllarida applikatsiya texnikasida

tikiladi. Bo'lakchalar bir-biriga mashinaning zig-zag choklari yordamida ulab chiqiladi. Natijada, juda ham ajoyib va bejirim fakturaga ega bo'lgan quroq texnikasining na'munalari paydo bo'ladi va ustki kiyim plashlarning har hil qismlarida qo'llaniladi. Quroq texnikasini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirishda o'zbek milliy matolari bo'lgan adras matolaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki milliy matolardagi rang-baranglik quroq texnikasini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirilganda ularda bejirim ranglar gammasini yaratadi.

Asos sifatida ustki kiyimlar uchun plashbop matodan foydalanamiz. Plashbop matolar xomashyo tarkibiga ko'ra, ip-gazlamali, ipakli va yarimjunli bo'lishi ham mumkin. Odatda ular yengil zichlikdagi poliamid tolalardan iborat bo'lib, sadaf rangli, kumush va tilla rangdagi plyonka, shuningdek, lateks bilan qoplangan, lak bezakli bo'ladi, shamolga bardosh beruvchi, suv o'tkazmaydigan matolar ham shular jumlasidandir.

Nam o'tkazmaydigan plash, palto va bosh kiyimlar kompleks va plyonkali materiallardan tayyorlanishi ham mumkin. Bunga tabiiy yo sun'iy charm va zamshni misol keltirish mumkin.



8-rasm. Endryu Jakobning "Soy" asari



9-rasm. Endryu Jakobning “Soy” asarini qo’llab loyihalangan libos namunasi



Takrorlash uchun savollar:

1. Bugungi kunda moda olamida quroq texnikasini ro’li haqida so’zlab bering.
2. O’zbek dizaynerlari tomonidan quroq texnikasidan foydalanib liboslar to’plamlari yaratilishida nimalarga e’tibor qaratish lozim?
3. Quroq texnikasini tasviriy san’at asarlari bilan qanday uyg’unlashtirish mumkin?

2.8. KOSTYUM SILUETINING MATO NAQSHI BILAN BOG’LIQLIGI.

Kostyum dizaynerlarining xozirgi kundagi dolzarb muammolaridan biri bu, kostyum ansamblining yaxlit sistemasini tashkil etishdan iborat. Kostyum kompozitsiyasini echimi matoning naqsh kompozitsiyasiga bog’liq. Shuning uchun dizayner kostyum yaratishdan avval zamonaviy uslubning xususiyatlarini o’rganishi va tahlil qilishi lozim.

Kostyum deganda insonni umumiy siymosini aks ettiruvchi kiyim, bosh kiyim, oyoq kiyim, qo‘lqop va b. buyumlar yig‘indisi nazarda tutiladi. Kostyum tushunchasi – tarixga ega bo‘lib, u turli davr va vaqtdagi inson qiyofasini gavdalantiradi. Kostyum shaklining salmoqli tavsifi, belgisi bu siluetdir (profil va frontal ko‘rinishda). Keyinchalik paydo bo‘lgan “Ansambl” tushunchasi ham kostyumga o‘xshab bir nechta qismlardan iborat yagona badiiy echimga ega. Biroq ansamblni tashkil etuvchi kiyim, oyoq kiyim, bosh kiyim, qo‘shimcha aksessuarlarni bir vaqtda kiyish maqsadga muvofiqdir.

Yana shuni aytib o‘tish joizki: kostyum doim muayyan insonga individual tarzda qaratilgan bo‘lsa, ansambl – davrni ifodalovchi umumlashgan inson obraziga tegishlidir. Har bir ansambl kostyum bo‘lishi mumkin, ammo xamma kostyum ham ansambl bo‘la olmaydi. Avvallari ansambl yakunlangan shakl, o‘zgartirishlar kiritilmaydigan, bir birga bog‘liq bo‘lgan elementlardan iborat bo‘lsa, xozirgi kunda esa ansamblni yaratishda asosiy detal va elementlarni yakunlanmaganligi va alohida xarakterga egaligi, ularni boshqa ikkinchi darajali element va detallar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Kiyim madaniyati bu umumbashariy va ommaviy ko‘rinish bo‘lib u turli davrni o‘z ichiga oladi. Yuqori sinfga mo‘ljallangan kiyimlar, ommaviy kiyimlardan matolarning qimmatbaholigi, nozik bezagi va kam nushada chiqarilishi bilan farq qiladi. Ommaviy kiyimlar qimmatbaho kiyimlarni eslatuvchi ammo arzon matolardan tikilgan va ommabop tirajda chiqarilganligi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy kostyumni yaratishda quyidagi prinsiplarga amal qilish lozim:

- tarixiy an’analar bilan bog‘liqlikni saqlash.
- ilg‘or tendensiyalarni analitik o‘zlashtirish.
- yangi badiiy g‘oyalarni sanoatga tezkor tadbiq etish.
- modani prognozlashda ilmiy yondashish va kostyumda ilm fan madaniyat va sanoatni yutuqlarini aks ettirish.
- kostyumni utilitar funksiyalariga amal qilish.
- o‘rab turgan moddiy muhit bilan zamonaviy inson obrazi uslubining

yakdilligini ta'minlovchi kostyum ansamblini yaratish.

Xozirgi kunda kostyum yaratishning asosiy kompozision prinsipi kontrast va dinamika bo'lib, ilgari urf bo'lgan ko'p qavatli liboslar esa vertikal liboslar uyg'unligi bilan almashinadi. Insonsiz kostyum faqatgina potensial qiymatga ega bo'ladi, inson bilan kostyum esa badiiy obrazni vujudga keltiradi. Bu qonuniyatni dizayner navbatdagi yangi kompozisiyani yaratishda unutmasligi lozim. Kostyum kompozisiyasi naqsh kompozisiyasi to'g'ri va asoslangan echimini belgilab beradi. Mato naqshi rasmi va kostyum – ajralmas yaxlitlik bo'lib, ular bir birini to'ldirib turadi. Bundan tashqari kostyum loyixalanayotganda uning kompozisiyasi obrazini sintez qilgan holda matodagi naqsh tanlanadi. Dizayner aniq gavdada tayyor libosni aniq tasavvur eta olish kerak. Bu erda shuni takidlash joizki libos eskizi to'g'ridan to'g'ri matodagi naqshga bog'liq (1-rasm).




1-rasm. Libos eskizini loyixalashda mato naqshini inobatga olinishi.

Kostyum – bu avvalambor xajm va fazoviy shakl bo'lib, kostyum kompozisiyasi esa, o'z navbatida fazoviy elementlarni strukturasi hisoblanadi. Kostyum kompozisiyasi vositalariga:

- massa (xajm, fazoviy geometrik shakli);
- maydon (detallarning yassi shakllari uchun);
- chiziq (shakllarni bo'laklash);
- mato (faktura, rang, naqsh)lar kiradi.

Kostyum strukturasi kiyimni fazoviy shaklining o'lchamlari mutanosibligi (lif, yubka, eng), oyoq kiyim va bosh kiyim elementlarning chiziqli xarakteristikasi (siluet chiziqlar, relief choklar) mato bilan birga yetarlicha to'liq xarakterlaydi. Kostyum kompozitsiyasini buyumning fazoviy shakliy maketida yoki qog'ozdagi eskiz loyixasida amalga oshirish mumkin. Kostyum kompozitsiyasini eskiz ko'rinishidagi echimiga to'xtaladigan bo'lsak, bajaradigan funksiyasiga ko'ra eskizlar quyidagilarga ajratiladi: muammolarning dastlabki umumiy g'oyasini namoyish etuvchi (qo'yilgan maqsadga qarab eskiz; qog'ozda yoki xajmda echim topadi) va tugallangan, ya'ni matodagi naqshni yoki kostyumni namoyish etadigan holatda.

Kostyum kompozitsiyasida naqsh funksiyasining roli haqida so'z borganda, kostyumga ta'sir etuvchi naqshning ritm-plastikasida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir (2-rasm).



2-rasm. Kostyum kompozitsiyasida naqsh funksiyasining roli.

Agar naqsh kompozisiyasi asosida ritm va naqshning ritmik xarakati yotsa, kostyum kompozisiyasi siluetga qaratiladi. Kostyum silueti (shaklning eskizidagi kontur chiziqlari) libosni konstruktiv va asosiy strukturaviy xususiyatlarini sintezlaydi, bu kostyumning alohida detallari shakllari (yoqa, eng, cho‘ntak, taxlama va b.q.) ga tegishli. Bundan tashqari plastik harakatli choklar va bezaklar ham kostyum shakliga ta’sir ko‘rsatib yangicha tartib kiritadi.

Kostyum shaklini o‘rganish qulay bo‘lishi uchun uni klassifikasiyalash lozim. Albatta ushbu klassifikasiya shartli ekanligini unutmaslik lozim. Umuman olganda, kiyim silueta klassifikasiyasi oddiy to‘g‘richiziqli va egrichiziqli shakllarga bo‘linadi. Bunday bazaviy shakllar o‘n ikkiga bo‘linib, ular ayollar yaxlit kiyimlar siluetiga tegishlidir.

To‘g‘ri chiziqli shakllar (3-rasm 1 qator).

Egrichiziqli bo‘rtma shakllar (3-rasm 2 qator).

Egrichiziqli bukilgan shakllar (3-rasm 3 qator).

Egrichiziqli murakkab shakllar (3-rasm 4 qator).



3-rasm. Kiyim silueta klassifikasiyasi.

Agar ushbu shakllarni vertikal qatorlar bo‘yicha ko‘rib chiqadigan bo‘lsak:

- 1-ustun – to‘g‘ri to‘rtburchak asosidagi shakl;
- 2-ustun – teskari trapetsiya asosidagi shakl;
- 3-ustun – asosi trapetsiya bo‘lgan shakl.

Shuni aytish joizki, keltirilgan shakllarni yubka, bluzka va hatto bosh kiyimlarni mustaqil buyum sifatida klassifikatsiyalash mumkin. Yana bir muhim ma’lumotlardan, kostyum kompozitsiyasida bazaviy shakllarning plastik xarakati har doim ham muhim bo‘lavermaydi. Yeng yoki yoqalarning shakli kostyum plastik siymosida hal qiluvchi bo‘lishi mumkin. Ya’ni bir hil shakldagi libos siluetlarini turli hil eng shakllari butunlay o‘zgartirishga qodir (4-rasm).



4-rasm. Turli shakldagi engli to‘g‘ri siluet ayollar liboslarining echimi




Takrorlash uchun savollar:

1. Kostyum deganda nimalar nazarda tutiladi?
2. Yuqori sinfga mo‘ljallangan kiyimlar, ommaviy kiyimlardan nimasi bilan farq qiladi?
3. Xozirgi kunda kostyum yaratishning asosiy kompozision prinsipi nimada?
4. Kiyim siluetlarini klassifikatsiyasi haqida so‘zlab bering.
5. Plastik harakatli choklar va bezaklar kostyum shakliga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

2.9. KUNDALIK VA TANTANALI KIYIM, ORNAMENT.

Yangi moda – bu avvalambor kiyim konstruksiyasi orqali ifodalanuvchi buyumning yangi shaklidir. Konstruksiya va moda bir-biridan ajralmas tushunchalar bo'lib, dizaynerdan eskizda ko'rsatilgan shaklni echimini topish va uni maketda tekshirish uchun buyumni turli siluet shaklini, hamda, buyum elementlarini konstruktiv bog'lashni bilish talab etiladi. Yangi shaklni xususiyatlarini anglash uchun dizayner avvalambor uning **siluetini** aniqlab oladi. Kostymda siluet deb, odatda xajmli shaklni yassi tasviri tushuniladi (1-rasm).



1-rasm. Kostyum siluetlari.

Shakl va siluet – bu bir biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, modaning asosiy xarakteristikasi xisoblanadi. U vaqt o'tishi bilan o'zgarib, modani o'zgarishi va rivojlanishiga sabab bo'ladi. Kostyum dizayneri faoliyatida qomatni kiyimdagi tashqi qiyofasi, muhim ifoda vositasi bo'lib xizmat qiladi. Chunki bichimni detal, chiziqlarini, naqsh yoki bezakni sinchiklab ko'rishdan avval, biz buyumni umumiy shaklini qabul qilamiz, siluetni xarakterligi chiziqlariga e'tibor qaratamiz. Bunda dizaynerning ijodiy fantaziyasi namoyon bo'ladi. Siluet orqali biz birinchi navbatda modaning yangi yo'nalishini farqlaymiz, libos siluetini ishlab chiqish dizaynerdan turli emosional tasirga ega o'y, ijodiy tuyg'u, yangi, betakror echim prinsiplarini topishni talab etadi. Libos silueti eskizlari, fantaziyaning rivojlantiribgina qolmay, balki, chiziq va shakllarni proporsiya, ritm, contrast kabi vasitalarini qo'llashni o'rgatadi. Libos xarakatlanish davrida bir shakldan

ikkinchisiga o'zgaradi, o'zining plastik qiymati, rangi, chiziq va detallar nafisligini ochib beradi. Buni dizayner eskiz yaratishdan to tayyor mahsulotga bo'lgan ish jarayoni davrida unutmasligi va inobatga olish zarur (2-rasm).




2-rasm. Libosni tayyor va eskiz xolati.

Shakl va naqshni butunligicha idrok etish kostyumni badiiy siymosiga baho berishga ko'maklashadi (3-rasm). Shunga ko'ra, shaklning proporsiya va plastikasidan kelib chiqib ikki asosiy strukturani ajratib ko'rsatish mumkin:

birinchi struktura shakl jixatdan geometrik siymoga yaqin bo'lib, konstruksiyasi to'g'ri chiziq va aniq burchaklardan iborat.

ikkinchi struktura yumshoq, mayin egri chiziqli, yengil, siluet jixatdan ovalga yaqin.



3-rasm. Libos shaklining proporsiya va plastikasidan kelib chiqqan ikki asosiy strukturasi.

Bu strukturalarni assosiasiya jixatdan geometrik va o'simlik naqshlariga tenglashtirsa bo'ladi. Naqsh xarakteri, uning o'lchami, rangdorlik echimi kostyum shaklini belgilab beradi. Naqsh va faktura esa dizayner ijodiy ishini yo'naltiruvchi omil hisoblanadi. Bichim chiziqlari, detallarning tashqi ko'rinishi va boshqa vasitalari yordamida qomat proporsiyalarini, turli matolarda konstruksiya qurish va tikish texnologiyalarini bilish talab etiladi. Sanab o'tilgan hislat va bilimlarning yig'ndisi, yuqori talablarga javob beruvchi, qulay, go'zal liboslarni yaratish imkonini beradi (4-rasm).



4-rasm. Bir to'plamga kiruvchi liboslar.

Kundalik kiyim va turli mashg'lotlar (o'qish, sayr, ko'rgazmalarga borish, xaridlarni amalga oshirish va b.) uchun kun davimida kiyishga mo'ljallangan. Kundalik kiyim xarakteri va uslubi insonning ish faoliyati turi, turmush tarziga bog'liq. Chunki zamonaviy insonning hayoti turli tuman bo'lib, kundalik kiyimi ham xar hil bo'lishni talab etadi.

Xar bir inson kiyimga qo'yadigan talabi individual bo'lib, unda inson atrofi-olamga va o'ziga bo'lgan munosabati aks etadi. Ammo hozirgi zamoda kiyimga qo'yiladigan eng muhim talablardan, bu uning maksimal darajada qulayligi va muayyan vaziyatga mosligidir.

Oqshom liboslari – bu alohida hodisalar: bayramlar, tadbirlar, tantanalar, teatrga tashriflar va boshqalar uchun mo'ljallangan kiyimlar kiradi. Bashing kiyimlari, bayram muhiti va alohida kayfiyat kasb etishi lozim. Barcha kostyumlar singari oqshom liboslari ham mo'ljaliga ko'ra bashanglik darajasiga ega. Bu insonning shaxsiy estetik didi va zamon talabiga bevosita bog'liqdir.



Takrorlash uchun savollar:

1. K
ostyumga mato tanlashda nimalarga etibor qaratish lozim?
2. S
haklning ikki asosiy strukturasin izoh bering.
3.
Kundalik kiyim va turli mashg'lotlar uchun mo'ljallangan liboslarga ta'rif bering.
4. O
qshom liboslariga qo'yiladigan talablar.

GLOSSARIY

Avangard - Modaning noodatiy, o'ta udumda, modada bo'lgan libos, kiyim nomi.

Abris-Ob'ektning chiziqli tasviri, kontur. Reproduktiv qiyofaning konturi va shaffof matoga qo'yilgan rangli asl nusxaning alohida tonal va rangli maydonlarining chegaralari.

Abr matolar- To'qish jarayonidan oldin bir yoki bir nechta rangda tanda iplarni bo'yash yoki bosib chiqarish natijasida olingan naqshli mato.

Abstrakt- Abstraksiyaga asoslangan, chalg'ituvchi, mavxum.

Asossiasiya - Bir nechta sezgi, idrok, tasavvur va g'oya o'rtasida muayyan sharoitda shakllanadigan aloqa.

Axromatik- Rangsiz, bo'yalmagan.

Aerograf- Qog'oz, gazlama yuzasiga siqilgan xavo bilan bo'yoq chiqaradigan qurilma.

Aerografiya- Gazlama ustiga suyuq bo'yoq sachratib hosil qilinadigan badiiy bezak usuli.

Ajur- Yupqa to'r mato, to'qish, harir naqshli mato.

Aksessuarlar- Liboslarga mukammal ko'rinish beruvchi predmetlar aksessuarlar qatoriga kiradi: ya'ni sharf, ro'mol, bosh kiyim, qo'lqop, sumka, bo'yinbog', hamyonlar. Savdo rastalarida ular galantereya mahsulotlari deb nomlanadi.

Applikatsiya- Ornament yaratish usuli. U kashta, (mato, trikotaj, qog'oz va x.k.) asosga, boshqa rangdagi bo'lakcha material, mato, tasma, yung, teri, qog'oz va boshqalarni yopishtirish orqali amalga oshiriladi. Rasm bo'rtib turishi uchun oraliqqa paxta, sintepon va h.k qo'yiladi. Applikasiya – bezash san'atining qadimgi usullaridan bo'lib, undan hozirgi vaqtda ham ko'pgina xalqlarda ishlatib kelinmoqda.

Assortiment- To'plam yoki ro'yxat, tovar turlari, xomashyo, nav ishlab chiqarilgan va savdo assortimenti deb farqlanadi.

Atlas- Tabiiy ipakdan, shuningdek viskoza, asetat va paxta iplaridan atlas to'qilishi yordamida olingan zich, yaltiroq gazlama.

Atlasga oid to'qilish- Oddiy to'qimachilikdagi to'qilish usuli bo'lib, sirt va uzunasiga qoplovchi iplar asosiy hisoblanadi. Rapportda 5tadan kam ip bo'lmasligi lozim; har bir arqoq ip rapportda faqat bir marta sirt yuzasiga chiqishi, keyin barcha tanda iplar ostidan o'tishi kerak. Bunday to'qilish mato (gazlama)larning sirtiga silliq, yaltirash, yaxshi chidamlilik beradi, ammo gazlamaning chirishini tezlashtiradi. Atlasga oid to'qilish bo'yicha atlaslar, lastiklar, ko'ylakli gazlamalarni tayyorlashda qo'llaniladi.

Axromatik- Rangsiz, hatto bo'yoqsiz, oq, och kulrang qoracha bo'lishi mumkin.

Batist- Yupqa, engil, yarimshaffof lyon yoki paxta ipidan to'qilgan mato, polotnoga xos to'qimaga ega. Batist yumshoq, odatda ipakdek mayin, oppoq, oqartirilgan yoki ochiq rangga bo'yalgan bo'ladi. U ingichka kundoqda yigirilgan biripli ipdan tayyorlanadi. Yoqimlilik, yaltiroqliligi, chidamliligi bilan ajralib turadi. Yozgi ko'ylaklar, bluzkalar, erkaklar sorochkalari, bolalar va xotin qizlarning ichki ko'ylaklari uchun juda mos. sirt zichligi 58 g/m^2 . U fransuz ustasi batist nomiga qo'yilgan (shambre XVII asr). Evropada u birinchi bo'lib juda yupqa yarimshaffof lyon material yaratgan. Batistning asl vatani paxta davlati hindiston deb hisoblanadi.

Baxmal, duxoba, yarimduxoba- Sirti (o'ngi) zich vertikal kalta tukli (1-2 mm) mato. Baxmalning asos iplari tukli, yarim duxobaning esa tanda iplari tukli qilib ishlanadi. Tukli iplar tabiiy ipakdan yoki kimyoviy toladan bo'lishi mumkin. Grunt iplarga odatda paxta, ba'zan ipak iplar ishlatilgan, yarim duxoba bir xil bo'yoqda yoki bosma rasmi qilib ishlab chiqarilgan. Matolardan ko'ylak, bolalar kostyumi, dekorativ material sifatida foydalanilgan.

Bezak- Kiyimga va odamga, chiroyli turdagi kurinish berish. Kiyimni bezatadigan yoki uga qo'shimcha qiladigan

Biser- Mayda har xil shakldagi shaffof yoki rangdor shishadan yasalgan marjon (munchoq), ip o'tkazadigan teshikchaga ega. Kiyim hamda bosh kiyimlarni bezash uchun ishlatiladi. Qadimgi misrda biser ipdan marjonlar shodasi tayyorlanib kiyimlarga taqilgan. X asrda vizantiyada biser ishlab chiqarish siri o'zlashtirilgach, u boshqa mamlakatlarga tarqalgan. XVIII asr o'rtalarida M.V.Lomonosov rossiyada biser ishlab chiqarilishiga asos soldi.

Bijuteriya- Qimmatbaho (to'nog'ich, kulon - zanjir), klipsi, marjon, taqinchoqlarga taqlid qilib yasalgan ayollar bezagi. Bunday taqinchoqlar qimmat bo'lmagan tosh va metallar; shisha, plastmassalardan tayyorlanadi. Kiyimlarga qo'shimcha dekorativ-estetik bezak.

Bordyur - Gazlama oboy chetlarini ramkalangan rangli chizik.

Bukle- Muntazam ravishda takrorlanadigan tugun bilan aylantirilgan to'qima ip, dag'al yuzli aylantirilgan to'qima ipdan to'qilgan gazlama yoki trikotaj.

Bulavka- 3-5 sm uzunlikdagi metall shakli yoki oxirida halqasi bo'lgan igna. dekorativ bulavka soch turmaklash, shlyapa, kostyumlarni bezashda xizmat qiladi. Libos mato (masalan, bichishda, buyurtmachi mahsulotni kiyib ko'rishda) detalni vaqtincha biriktiruv jarayonida qo'llanadi.

Brend- Kompaniya, mahsulot haqida axborotlar majmuasini ramzi yoki ishlab chiqaruvchi, tovarning mashhur, oson taniladigan, huquqiy jihatdan himoya qilingan ramzi hisoblanadi.

Dekatirlash- Gazlamani xususiyatlarini yaxshilash, tayyor buyumda kirishish xususiyatini oldini olish maqsadida par yoki suv bilan ishlov berish.

Dekorativ- Bezak sifatida ishlatiladigan. Ko'zga tashlanuvchan, ajoyib, qisqartirilgan, ortiqcha tavsilotlarsiz ishlangan.

Djut- Qalin mato, arqon tolalaridan uy jihozlari matolari, gilam asoslari, pol qoplami tayyorlanadigan jo'ka daraxti oilasiga mansub o'simlik turi.

Diagonal- Qiyalama bo'rtma zich paxta yoki jun gazlama.

Dizayn- Buyumlarni badiiy loyihalash; sanoat buyumlarini estetik tomondan loyixalash.

Dinamika - Harakat holati, rivojlanish yo‘li, kuch ta’sirida o‘zgarish. Farovonlik harakati, harakat.

Disproporsiya - Tengsizlik, qismning to‘g‘ri kelmasligi, proporsiyaning yo‘qligi.

Dissonans - Biror narsaga monandlik yo‘qligi, to‘g‘ri kelmaslik, nimagadur qarama-qarshiligi, noittifoqlik.

Dominant - Bosh g‘oya, asosiy belgi yoki nimanidur muhim tarkibiy qismi.

Drap - Qalin zich mato, toza jun yoki asosiy qismi paxta ipidan tayyorlangan mato.

Eklektizm - Birlik, yaxlitlik, e’tiqodlardagi mustahkamlik nazariyalar turli xil, mos kelmaydigan, qarama-qarshiliklarning asossiz aralashmasi yo‘qligi; san’atda –turli uslublar va uslublarning rasmiy, mexanik birlashmasi.

Fay - Krep-fay qalin ipak yoki yupqa ko‘ndalang yo‘l-yo‘l bo‘rtma chiziqli junli mato.

Faydeshn - Turli xil o‘rta qalinlikdagi ipak fay.

Faktura - Badiiy san’atni ifodalashda bir vosita bilan ishlash, tasviriyl san’atdagi yuzaning majmuasi. Trikotaj yoki noto‘qima polotnning yuza tuzilishidagi o‘ziga xos xususiyat bezak.

Flannel - Ikki taraflama momiq tukli polotno to‘qiydigan usul bilan to‘qilgan paxtali yoki junli mato.

Folklyor uslub -Turli davlatlarning milliy liboslaridagi naqshlar tushirilgan zamonaviy libos uslubi. Bu uslub bir necha ma’nolarga ega, shu jumladan “etnik” Afrika va lotin amerika davlatlari, sharq milliy liboslaridagi elementlarni liboslarda stilizatsiyalangani.

Formalism - Idealizmning har xil turlarining o‘ziga xosligi, kontentdan shaklning ajralmas qismidir. Kontentdan foydalanishda tashqi shaklga rioya qilish.

Fulyar - Yengilligi bilan ajralib turuvchi nozik polotno to‘qilishdagi ipak mato. Dastro‘mol yoki ro‘mol qilinadi.

Gaz - Flyorning xuddi o‘zi, shaffof, engil ipak yoki tovlangan paxta ipidan to‘qilgan katta guruh mato nomi. Undan ro‘mol, sharf, ko‘ylak, peshonabog‘, shlyapa otdelkasiga ishlatiladi.

Gabardine - Yuqori sifatli palto va kostyum uchun mo'ljallangan toza jun gazlama.

Garderob - Insonning hayotida hamma zarur vaziyatlariga mo'ljallangan, biror-bir belgilari bo'yicha mujassamlashgan aksessuarlar, poyafzal va kiyimlar majmui.

Gobelen - Qo'l ishi bilan tayyorlangan yuqori qiymatli badiiy bezakli (gazlama kartina, drapirovka, uy jihoz qoplamasi). Avtomatik yo'l bilan tayyorlangan badiiy bezakli gilam yoki gazlama.

Gipyur - Aniq gullarga ega to'rli kashta turi. Tikish mashinalarida tayyorlanadigan og'ir to'r polotno. Ayollar bluzka va ko'ylagi, shuningdek, yoqa, manjet, qo'yimalarni tayyorlash uchun qo'llaniladi. Kashta va kashta choklar. Gipyur murakkab bo'limchalar (to'r, yulduzli, rombli, burchakli, snovkali, "o'rgimchak"li tikishga kiradi.

Ideal - Tasavuriy, real mavjud bo'lmagan. Komil namunali, idealga mos.

Illuziya - Xaqiqatni noto'g'ri ko'rmoq, tuyiladigan bir narsa.

Imitasiya - Kingadir yoki biron bir narsaga taqlid qilish. Qalbaki.

Improvizasiya - She'r yoki musiqani ijro qilish paytida tayyorgarliksiz o'ylab topish.

Inkrustasiya - Yuzaga o'rnatiladigan har xil materialdan ishlangan plastinkalardan tashkil topgan tasvir yoki bezak.

Interyer - Binoning ichki qismini me'moriy jihatdan badiiy bezalishi.

Intuisiya - Qobiliyat aql-idrok mantiqiy asossiz tajribaga tayangan holda haqiqatni aniqlash.

Kashta - Dekorativ — amaliy san'at turi, unda naqsh (gul) va tasvir mato, charmga tikish orqali bajariladi. Boshqa materiallarga ipak, jun, len, paxta, metall iplar bilan biser, dur, qimmatbaho toshlar, tangalar va hokazolar ishlatiladi. Ibtidoiy chok madaniyati hayvonlar terisidan kiyimlarda chokning paydo bo'lishidan yuzaga kelgan. Kashta bizgacha qadimdan qolgan naqshli motivlarni etkazib kelgan, ular belgili gul (naqsh)lar mazmunining murakkab ekanligini aks ettiradi. Ular ichida eng oddiysi krest, kvadrat, romb va aylana shaklida bo'lib, shartli belgilar, ramziy quyosh tarzida ifodalangan, ular ilohiy tasvir deb hisoblashgan.

Kollaj - Tasviriyl san'atdagi texnik usul; biror bir asos materialga rang va sifati bilan farqlanuvchi materialni yopishtirib asar yaratish, shuningdek shu usulda yaratilgan san'at asari ham kollaj deb ataladi. Reklamada ham qo'llaniladi.

Kashemir - Engil, silliq junli yoki yarim junli gazlama.

Kiseya - Yupqa, engil, harir, paxta ipidan polotno o'rilisidagi to'qilgan mato.

Kolorist - Kraska ranglarini ustalik bilan ishlatuvchi va moslashtiruvchi rassom, kolorit ustasi. Gazlamalar ranglari bo'yicha mutaxassis.

Kolorit - Ko'p rangli san'at asarida ranglar moslashuvining umumiy xarakteri (kartina, rangli gravyura, rangli rasm, gazlama va b.) Bir narsaning o'ziga xosligi, xususiyatlarining jami.

Kompozisiya - Asarning tuzilishi, aniq joylashish, asarning ichki tuzilishi: yaxlit tasviriyl g'oyani tashkil qiluvchi, tasviriyl usullarning ketma-ketligi, gruppirovkasi va to'plami. Shunday tur ijodiga bag'ishlangan ilmiyl fan.

Komponovkalash - Alohida buyumlardan bir butunlikni hosil qilish.

Komplekt - Liboslar to'plami va u bilan birga yoki alohida ishlatish mumkin bo'lgan qo'shimchalar.

Konfigurasiya - Tashqi ko'rinish, shuningdek predmetlarning va ularning qismlarini bir biriga nisbatan joylashishi.

Konsepsiya - Turli xil hodisalar va jarayonlarni tushunish tizimi. Asarning asosiy g'oyasi.

Kontrast - Predmetning yorqinligi yoki uning o'rab turgan fonga nisbatan ko'rishda keskin farq-kontrastning ifodalanishini tushuniladi. Nisbatan esa kontrast — bu badiiy usul, bir kompozisiya xususiyatiga qarama-qarshi keskin ifodalanganlikni bildiradi. Masalan, kontrast bo'yicha matolarni ishlab chiqarishda vertikal va gorizontal chiziqlar solishtiriladi, katta kichik formalar motivlari, ochiq va to'q qismlar qiyoslashtiriladi. Kontrast chiziqli kompozitsiyaning dinamikligi, uning dekorativligi, obrazli ifodalilikni beradi. Rangli bezatishda yanada ochiq va emotsional birikmalar berishda imkon yaratadi.

Kontur - Kostyum yoki figuraning model formasini aniq chizib beruvchi chiziqlar-yo'llar, abris.

Kostyum - Kiyim poyabzal, aksessuar va boshqa predmet va elementlarning ma'lum tizimi bo'lib, insonning ijtimoiy va milliyligi, uning jinsi, yoshi, mashg'uloti, mutaxassisligi va h.k. O'zida aks ettiradi. Xalq kostyumlari ma'noli, ta'sirli. Ular o'ziga xos, ananaviy xususiyatga ega bo'lib, material tanlash, bichiq, naqshlar bezagi, ranglar aralashmasi hamda bezak materiallari bilan farqlanadi.

Kupon - Maxsus joylashgan rasmlı, jıyaklı ko'ylak, bluzka, yubkaga moslangan mato qirqimi.

Krep - Shoi, jun yoki paxta iplaridan maxsus ishlangan dag'al yuzali gazlama.

Krepdishin - Krep yuzali mayda donali yorqin zich mato: ipak-hom ashyo krep burmalari kiyimi bilan ishlab chiqariladi: oqartirilgan, yumshoq rangli va to'ldirilgan holda ishlab chiqariladi.

Krepshifon - Ipak xom ashyosidan to'qish yo'li bilan ishlab chiqarilgan juda nozik, engil, shaffof mato.

Maket - Taxminiy namuna kichraygan ko'rinishda, predmetning shartli xajmdor tasviri; u shakl, proporsiya, vazifaga oid tasavvur xosil qilish imkon beradi.

Moda - Kiyim, maishiy predmetlar va boshqalarga oid didlarning ma'lum muhitda ma'lum vaqtda ustun bo'lishi.

Modeler - Modellar ishlab chiqarish bo'yicha mutaxassis, maxsulotlarning namunaviy ko'rinishi (masalan, kiyimlar, poyabzallar va x.k.). modelchi – rassom, kiyim kompazisiyasi ustida ishlab aniq tarixiy davrga moslashgan yoki xozirgi kunni ifodalovchi moda yo'nalishini boshqarib kiyimni mo'ljallanganligini hisobga oladi (masalan, ishlab chiqarish uchun, teatr uchun, maxsus va x.k.).

Naqsh - Elementlarning ritmik tartibiga ega bezak; Har xil predmetlarini (idishlar, gazlama, kiyim-kechak va b.) bezash uchun mo'ljallangan.

Original - Asl nusxa, asl nusxa asari. Tiklash uchun mo'ljallangan rasm, chizma.

Ofort - Ko'p darajali azot kislotasi bilan zahar yordamida olinadigan chuqur bosma elementlarni o'yish turi; mis yoki sink plastina himoyalovchi tuproq bilan qoplanadi, unda tasvir shtrxlari chiziladi. Shu yo'l bilan o'yib bosib tushirilgan doska.

Offset - Ofsetli bosma kraska, bosma formadan rezina silindrga, undan qog‘ozga tushuriladigan bosish turi, rangli bosib chiqarishning samarali turi.

Panno - Ornament yoki rangli bo‘rtma tasvir bilan bezalgan potolok, devor qismi; potolok yoki devorni bezab turuvchi maxsus kartina.

Pantograph -Rasm, chizma, plandan, asosan o‘zgartirilgan masshtabda ko‘chirma chizish uchun moslama.

Parcha - Ipga o‘xshash, tilla yoki kumush rang ipakli murakkab bezakli gazlama.

Pastel - Yumshoq rangli qalamlar, kraska, asal va bog‘lovchi moddalardan tashkil topgan yumshoq rangli qalamlar; shunday qalamlar bilan chizilgan badiiy asar.

Pike - Ba‘zan bo‘rtib chiqarilgan naqshli, qattiq paxtali yoki sun‘iy tolali yo‘l-yo‘l mato.

Piko - Tekstil bosma rasmning nuqtali bajarish usuli.

Plastika - Ganch, haykal, skulptura yasash san‘ati. Bezakli kompozitsiyada, rasmning konturi, chizig‘ini uzilmas harakati.

Plisse - Mashina yoki dazmol yordamida hosil bo‘lgan parallel burma.

Plyush - Yuza tomonida baxmalnikidan uzunroq bo‘lgan vorslari bor ipak, jun, paxta gazlama. Bezak mebel yoki kiyimga mato sifatida ishlatiladi.

Poplin - Qo‘llash natijasida ancha qalin arkok ip paydo bo‘lishi. Ipak, yarim ipak yoki paxtali mayda qarama-qarshi yo‘l yo‘l mato.

Popop - Kashta bilan gul tikish. Matoga rasm chizib, igna yoki ilmok orkali bir tomonga yonaltirib, bir – biriga ilib zanjir sifatida bajariladi

Primitivism- Murakkab savol va hodisalarga soddalashtirilgan yondashuv. Primitiv formalarga qaytmoq, primitivga taqlid qilmoq.

Proporsional - Butun qismga bo‘lgan to‘g‘ri nisbat, mos, qaysidir o‘lchamda aniq munosabatda joylashish.

Purpur - Pur-pur shilliqurtidan olingan qizg‘ish binafsha rangli antik qimmatbaho bo‘yoq, matolarni bo‘yash uchun ishlatilgan; shu bo‘yoq bilan bo‘yalgan gazlama nomi. Binafsha tusli to‘q qizil yoki och qizil rang.

Rakel- Osma formaning bosmaydigan yuzasidan bo‘yoqni tozalovchi ingichka po‘lat pichoq (masalan o‘yilgan metall bosma val); bo‘yoq faqat o‘yilgan joylardagina qoladi, u erdan bosim ostida gazlama yoki qog‘ozga o‘tkaziladi.

Rakurs - Tomoshabindan uzoqlashtirilgan tekislikda tasvirlangan predmetning qismlarini perspektiv kichrayishi.

Rapport - Gazlamada tasvirning qaytariladigan qismi.

Rastr - Yuzaga qaytarilgan yorug‘likni o‘zgarishi uchun shaffof va noshaffof elementlarning (panjara) yuzasi; bosma tekstil rasm ishlab chiqarishda rasmni val yoki to‘rli shablonga rasmni rasmga olish jarayonida ishlatiladi.

Ratin - Qalin mo‘yna gajaklari bilan hosil bo‘ladigan qalin yumshoq palto uchun jun gazlama.

Ramziy - Narsa (ramzi) yoki belgilar yordamida ifodalangan g‘oya va tushunchalar. Ramzlar yig‘indisi.

Rezervli bosma - Bo‘yash oldidan gazlamaga tasvirni tushurish. Tasvir tushurilgan joylarda bo‘yoq edirilishi natijasida bo‘yalgan gazlamada rasm xosil bo‘ladi.

Sarja - Astar sifatida ishlatiluvchi diagonal yo‘l-yo‘l chiziqli paxta yoki ipak gazlama.

Semiotika - Har xil belgilar tizimini o‘rganuvchi ilmiy nazariyalarning umumiy nomi.

Satin - Kichik masshtabli bosma rasmlı, yo‘l-yo‘l chiziqli yupqa paxta gazlama.

Stilizasiya - Ma‘lum uslubning tashqi formalariga taqlid qilish. Shartli bezak formalariga badiiy tasvirning bo‘y sunishi.

Tafta - Sun‘iy tolali ipdan yoki paxta ipdan ishlangan yupqa zich gazlama.

Tempera- Suv bilan aralashtiriladigan yog‘ va elim aralashmali yoki tuxum sarig‘idan tayyorlangan bo‘yoq.

Tukli - Ayrim gazlama, trikotaj va nomato polotno ustini qoplab turuvchi qisqa momiqli yakka tola.

Tekstura, tuzilish- Mato bog‘lash tuzilish qattiq jismning tuzilishi, assosiy qismining tuzilish tartib. Tekstura tukimachilik materiallarida tollalarning yigiruv iplarida joylashishi aylantirish bir-biriga urash, yigirish va tokish , ishlov berish va

boshkalarda xarakterlanadi. Tekstura iplari - xajimli sintetik toladan tayorlangan ip oddiy iplardan yuqori xajmi, kuchli buraluvchanligi , bosh strukturasi va katta choziluvchanligi blan ajralib turadi. tekstura iplarini ishlab chiqarish sintetik tolalarini keng ko'lamda ishlatish imkonini beradi va ularni gigiyenik xossalarini yaxshilaydi, yoqimsiz yaltiroq shisha sintetik materiallardan xolos etdi. tekstura iplaridan trikotaj gazlamalari (krimplen) ishlab chiqarish keng yo'lga qoyildi yuqori va quyi trikotaj paypok maxsulotlari sun'iy mo'yna olish, gilam, qalin jun romollari ishlab chiqarishda foydalanilmoqda. Tekstura iplari olish usuli xossasi va ishlatilishiga ko'ra yuqori choziluvchan, kam choziluvchan, buraluvchan, ilmoqli, bio komponentli, aralash va yuqori xajimli kabi turlarga bolinadi.

Tik - G'ilof, mebel qoplash uchun ishlatiladigan chiziqli zich paxta gazlama.

Tipizasiya - Aniq na'muna yordamida jarayon va hodisalarning sotsial mazmunini, umumiy yo'llarini ifodalash, badiiy umumlashtirish.

Tonalik - Ornamental yoki rangli asarda alohida ranglarni bog'lovchi asosiy rang, ton.

Tranformasiya - O'zgarish, boshqa narsaga aylantirish.

Transformasiyalash - Nimanidir hususiyatini o'zgartirish, boshqa narsaga aylantirish, ko'rinishni, shaklni o'zgartirish.

Trafaret - Rasm yoki yozuv ko'rinishidagi teshikli qalin qog'oz, metall dan plastikasimon narsa, plastmassa, daraxt (tasvirni ranglar yordamida tushurish uchun xizmat qiladi).

Tushe- Matoni ushlab ko'rib xususiyatini baholash.

Tyul - Engil, to'rsimon shaffof yoki naqshli to'rsimon mato.

Uslub - Alohida asarda yoki ma'lum vaqt tasviriy san'atda usullarning g'oyaviy va badiiy umumlashmasi.

Uyg'unlik - Muvofiqlik, masalan rang tonlarida. Musiqiy san'atning bo'limi (musiqali, ornamentli). Kiyimda, masalan, ranglar jilosi bir-biriga uyg'unlashgan, moslashgan bo'lishi kerak. Garmoniyada ranglarning barchasi naqshlar kompozitsiyasida moslashgan holda birikib ketishidir. Mato va to'qimachilik mahsulotlarida badiiy bezak muhim ahamiyatga ega va u ma'lum qonuniyat

bo'yicha bo'lishi lozim: 1) rang berish kompozitsiyasi obrazli xulosa (qaror) hamda kimga, nimaga belgilanganligi; 2) rangning chiziqli ritmi, uning fon va boshqa ranglarning ishtiroki bilan mos kelishi, qo'shni ranglar bilan to'g'ri kelishi kompozitsiyani umumiy qabul qilishga yordam beradi.

Velvet - Zich tukli paxta gazlamasi, ingichka toladan ishlab chiqariladi. Sirtida asos iplar bo'ylab uzunasiga ketgan chiviqli tuklarga ega. Keng yo'l tukli chiyduxoba velvet-kord deyilsa, tor tukli yo'l-yo'l chiy duxoba bo'rtma chiviqli velvet deyiladi. Chiy duxoba sidirg'a yoki rangli, ko'pincha katak- katak hamda yo'l- yo'l bo'ladi, undan kostyumlar, qishki ko'ylak, kurtka palto va b. tikiladi. Bunday tukli chiyduxobalar tashqi jihatdan effektli, ishlaganda yoqimli, yaxshi chidamlilikka ega.

Velyur - Juda kichik, qalin va yumshoq tukli to'qilgan junli gazlama. Eng yuqori merinos junlar ishlatilgan drap-velyur qimmatbaho velyur gazlamasi hisoblanadi. Velyur-duxobadan yuqori bo'lib, kiyim, bosh kiyimlar tayyorlanadi. Xrom bilan oshlangan teri (xromli zamsh) u qora mol yoki cho'chqaning pishiq mayda terisi shikastlangan ust sirti va duxobaga o'xshash baxtarma tomonidan ajratilgan teridan ishlab chiqariladi. Velyur ayrim ustki kiyim va oyoq kiyim uchun ishlatiladi. Sintetik velyur (sun'iy zamish tashqi ko'rinishidan tabiiy velyurga o'xshab ketadi. Fetr kalta, quyuk va yumshoq tukli bo'ladi.

Viskoza - Maxsus kimyoviy modda bilan sellyulozaga ishlov berish natijasida xosil boladigan yopishqoq suyuqlik, viskoza tolasi va selofan ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Vual - Fransuzcha (parda) nozik setka (to'r), u ayollar shlyapasining detali. Vual sharqda vujudga kelgan, chunki ayollar yuzlarini to'r bilan to'sib yurishlari, ko'chaga u siz chiqish, uyda begonalar oldida yuzlarini ko'rsatishlari mumkin emas edi. Misrda xotin-qizlar shaffof parda-vual bilan yuzlarini o'rab olganlar, yunonistonga keyinchalik kirib kelgan bo'lsada, grek vuali yuzni to'smagan. Balki kostyum detali o'rnida bo'lgan. Rim imperatori davrida vual parda juda ommalashgan. O'rta asr davri gotika davrida Evropada bosh kiyimni bezash sifatida ayniqsa moda hisoblangan. XVI asrda parda istemoldan chiqqan, faqat

ispanlar ayoli qora to‘r ro‘mol mantilya davom etgan. Kiyimda barokko va rokkoko vuallari kam qo‘llanilgan. Fransuz urushi davrida baland shlyapalardagina ishlatilgan. Bidermeer davrida vuallar yana ayollar shlyapasini bezashi uchun kirib kelgan. Ayniqsa kostyum detali sifatida silindrda qo‘llanilgan. XIX asr boshlarida tyuldan qilingan vual kirib keldi. Hozirgi davrda u tantanalarda, ayniqsa to‘y liboslari qatoridan joy oldi. Shaffof juda yupqa nozik paxta gazlama. Grebenda pishiq qilib eshilgan ipdan ishlab chiqariladi, juda engil. U oq, sidirg‘a va gulli bo‘ladi.

Zig‘ir - O‘tli o‘simlik, serpoyadan tola, urug‘idan yog‘ olinadi. Tola shu o‘simlik poyasidan olinadi. Toladan mato tayyorlanadi.

G‘oya - O‘y, predmet yoki hodisa haqida umumiy tushuncha. O‘y, bir narsani rejalash, masalan badiiy asar.

Charm - Qo‘y, echki, bug‘u, los, cho‘chqa, buzoq va boshqa hayvonlar terisidan ishlab chiqariladi. Terilar nimaga ishlatilishiga qarab 4 guruhga kiyim, galantereya, texnik, sarroj-egarchilikka bo‘linadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Козлов В.Н. Основы художественного оформления изделий текстильной промышленности. -М.: Легкая и пищевая промышленность, 1981.-259 стр.
2. Бесчастнов Н.П. Изображение растительных мотивов. –М.:ВЛАДОС, 2004.
3. Hasanbueva G.K. To'qimachilik dizayn tarixi.- T.: Iqtisodiyot - Moliya, 2007.
4. Козлов В.Н. Малахова С.А. Художественное оформление текстильных изделий. –М.:Легпромбытиздат, 1988.-303 стр.
5. Ермилова В.В. Композиция костюма. –М.:Академия, 2003.
6. Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю. Моделирование и художественное оформление одежды. –М.:Академия, 2001.
7. Пармон Ф.М. Композиция костюма.- М.:Легпромбытиздат, 1985.
8. Черемушкина Н.С. Принципы трансформации растительных мотивов в формы костюма и орнамента. Учебное пособие.- М.: МТИ, 1985.
9. Рывтинская Л.Б. Жученкова С.Н. Трансформация природных мотивов в формы костюма. Методическая разработка для ВУЗов.- М.:МТИ, 1990.
10. Гильман Р.А. Художественная роспись тканей. –М.: ВЛАДОС, 2003.
11. Основы теории проектирования костюма. Учебное пособие для ВУЗов (Под редакцией Козловой Т.В.).- М.:Легпромбытиздат, 1988.
12. Журналы: «Ателье», «International Textile», «Индустрия моды», «Швейная промышленность», «Текстильная промышленность».
13. <http://ziyonet.uz/uzc/library/libid/30500/tn/typeid/tv/56/>
14. <http://www.ziyonet.uz/uzc/library/libid/30500>
15. <http://ziyonet.uz/uzc/library/libid/30507>

16. <http://titli.uz/index.php/uz/axborotresurslari/qollanma.html>
17. <http://titli.uz/index.php/ru/axborotresurslari1/Darsliklar.html>
18. www.textileclub.ru
19. www.decy.ru/nanoword
20. www.bur.narod.ru